

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOT UNIVERSITETI
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O‘QITISH FAKULTETI**

“Himoyaga ruxsat etilsin”

O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish
fakulteti dekani f.f.d. B.Abdushukurov

“___” _____2018-yil

**5111200-“O‘zbek tili va adabiyoti” bakalavr ta'lim yo‘nalishi IV kurs
403-guruh talabasi Muzaffarov Kamoliddin Abdusalom o‘g‘lining
“Mahbub ul-qulub”da ilmiy-ma’rifiy, ta’limiy-tarbiyaviy qarashlar”
mavzusida yozilgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: _____ H.Jo‘rayeva
“O‘zbek adabiyotini o‘qitish
metodikasi” kafedrası o`qituvchisi

Taqrizchilar:

_____ f.f.n. I.Adizova
“O‘zbek adabiyoti tarixi va
matnshunoslik”kafedrası dotsenti

_____ D.Qosimova
ToshDO‘TAU letsiyi
ona tili va adabiyoti o‘qituvchisi

“Himoyaga tavsiya etilsin”
“O‘zbek adabiyotini o‘qitish
metodikasi” kafedrası mudiri
f.f.d. _____ Z.Mirzayeva
2018-yil “___”- _____

TOSHKENT-2018

MUNDARIJA

Kirish.....3-5

I bob. “Mahbub ul-qulub” asari adabiy manba sifatida

1.1. “Mahbub ul- qulub”da Navoiy adabiy-estitik qarashlari in’ikosi.....**6-17**

1.2. “Mahbub ul-qulub” asarida inson va uning kamoloti xususida.....**18-23**

II bob. Navoiy axloqiy-ta’limiy qarashlarining in’ikosi

2.1. “Mahbub ul-qulub”da ilmiy-marifiy masalalarning nazariy asoslari....**24-28**

2.2. Asarda ta’lim-tarbiya masalasi.....**29-35**

III bob. Ta’lim bosqichlarida “Mahbub ul-qulub” asarining o‘rganilishi

3.1. VI sinfda “Mahbub ul-qulub” asarining o‘rganilishi.....**36-54**

3.2. Ochiq dars ishlanmasi.....**55-64**

Xulosa.....65

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....**66-67**

Lug‘at

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Navoiy dahosi tufayli insoniyat tarixida dunyoning turli joylarida yashayotgan turkiy xalqlar yakqalam qilindi, millat ma'naviy merosi umumjahon xazinasidan mustahkam o'rin oldi. Mustaqil O'zbekistonda Navoiyni anglash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Respublikadagi eng yirik viloyatlardan biri va uning markazi, O'zbekiston Davlat mukofoti, O'z RFA Til va adabiyot instituti, Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti, opera va balet akademik teatri, O'zbekiston Davlat kutubxonasi, Samarqand Davlat universiteti va boshqa yuzlab madaniy-ma'rifiy muassasalar, jamoa xo'jaliklari ulug' shoir nomi bilan ataladi.

Navoiy, nafaqat o'zbek xalqi, balki butun dunyo, Sharq-u G'arb xalqlarini o'ziga rom etgan shoir. U kishining asarlarini hamma birdek sevib o'qiydi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida bu haqida shunday yozgan edilar: "O'zbek xalqi ma'naviy dunyosining shakllanishida g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan ulug' zotlardan yana biri - bu Alisher Navoiy bobomizdir. Biz uning mo'tabar nomi, ijodiy merosining boqiyliqi, badiiy dahosi zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqida doimo faxrlanib so'z yuritamiz. Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g'ururi, sha'n-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir. Ta'bir joiz bo'lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biron bir inson yo'qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa"¹.

Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asari shoir hayotining so'ngida yozilgan eng so'nggi yirik nasriy asar hisoblanadi. Asar 1500-yilda yozilgan bo'lib, 3qism, 127 ta tanbeh, 13 ta hikoyatdan iborat. Birinchi qismda insonlar xulq-atvorida uchraydigan yaxshi-yomon xislatlar va illatlar haqida fikr yuritiladi. Ikkinchi

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: M'anaviyat, 2008. – B. 47.

qismda tasavvufiy allomalar va ular hayoti bilan bog‘liq hikoyatlar uchraydi. Uchinchi qismda pand-nasihat ruhidagi 127 ta tanbeh kiritilgan.

Ushbu bitiruv malakaviy ishida “Mahbub ul-qulub”dagi adabiy-estitik, inson va uning kamoloti haqida ko‘plab qarashlar asosiy mavzu qilib olingan. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, Navoiyning ko‘pgina asarlarida adabiy-estitik, inson va uning kamoloti haqida ko‘plab qarashlar kiritilgan. Ularni alohida olib o‘rganish, bugungi kun talablari asosida fikr yuritish muhim vazifalardan hisoblanadi. “Mahbub ul-qulub”dagi adabiy-estetik, inson va uning kamoloti haqidagi qarashlarni ana shu tarzda o‘rganish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari haqida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Ular katta-katta kitoblardan tortib, kichik maqolalar shaklida. Asardagi adabiy-estitik, inson va uning kamoloti haqidagi qarashlar xususida ham qator ishlar bor. Bu jihatdan adabiyotshunoslar Hayitmetov A¹, Vohidov R², Izzat Sulton³, Sultonmurod Olim⁴, Ummat To‘ychiyev⁵ kabilarning tadqiqotlarini, “Navoiyga armug‘on”⁶ kabi kitoblarni ko‘rsatish mumkin. Ushbu ishlarda “Mahbub ul-qulub” bilan bog‘liq ayrim fikrlar o‘rin olgan.

Bitiruv ishining maqsadi. Ushbu bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi Navoiy "Mahbub ul-qulub" dostonini o‘qib, undagi adabiy-estitik, inson va uning kamoloti haqidagi qarashlar xususida, ularning mavzularini aniqlash, badiiy xususiyatlarini o‘rganishdan iborat.

Bitiruv ishining vazifalari. Bitiruv ishida yuqoridagi maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni yoritishga e‘tibor qaratildi:

- “Mahbub ul-qulub”ni to‘liq o‘qish;
- asardagi hikoyatlarning ta‘limiy-tarbiyaviy jihatlariga alohida urg‘u berish;

¹ Hayitmetov A. Adabiy merosimiz ufqlari. – Toshkent: M‘anaviyat, 1997.

² Vohidov R, Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyot tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi, 2006.

³ Izzat Sulton .Navoiyning qalb daftari. – Toshkent, 2010.

⁴ Sultonmurod Olim. “Mahbub ul-qulub”da shoirlar va oshiqlar // O‘zbek tili va adabiyoti, 2010. 6-son.

⁵ To‘ychiyev U. Navoiyni ishqni turlarga ajratib tasvirlashi // O‘zbek tili va adabiyoti, 2010. 6-son.

⁶ Masharipova Z. “Mahbub ul-qulub” hikmatlarida xalq maqollar. // Navoiyga armug‘on. 5-kitob. – Toshkent, 2006.

- hikoyatlardagi mavzularning dolzarbligini aniqlash va tasnif qilish;
- hikoyatlardagi obrazlarni guruhlashtirish va tahlilga tortish;
- hikoyatlarning badiiy xususiyatlari va ulardagi adabiy-estetik xususiyatlar;
- hikoyatlar va obrazlarni umumiy tahlilga olib kirish.

Bitiruv ishining obykti. Ushbu bitiruv ishini yozishda Alisher Navoiyning turli yillarda chop etilgan "Mahbub ul-qulub" asari, ayniqsa, mukammal deb hisoblanayotgan 10 jildlikning 9-jildiga suyanildi.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosi va uslubi. Bitiruv ishining metodologik asosini istiqloq mafkurasining nazariy masalalari aks etgan Birinchi Prezident Islom Karimovning asarlari tashkil etadi. Bitiruv ishini yozishda navoiyshunos olimlar A.Hayitmetov, A.Qayumov, A.Abdug'afurov, R.Vohidov, I.Haqqul, N.Komilov, H.Homidiy, Sultonmurod Olim kabilarning ilmiy-nazariy tatqiqotlaridan foydalanildi.

Bitiruv ishining ilmiy yangiligi. Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asaridagi adabiy-estetik, inson va uning kamoloti haqidagi qarashlar, ularning mavzularini aniqlash, mavzu jihatidan tasnif qilish, yangicha qarashlar asosida tahlil qilish, obrazlarga e'tibor qaratish, ularning o'ziga xos tomonlarini yoritish, hikoyatlarning badiiyati, ularda badiiy san'atlarni qo'llashda Navoiyning badiiy mahoratini ko'rsatish bitiruv ishining ilmiy yangiligini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu bitiruv ishida Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asaridagi adabiy-estetik, inson va uning kamoloti haqidagi qarashlar tahlil qilindi. Bu narsa shoirning boshqa asarlaridagi adabiy-estetik, inson va uning kamoloti haqidagi qarashlarni ham ana shunday o'rganishga turtki, yo'llanma beradi. Ushbu bitiruv ishidan kurs ishi, referat, bitiruv malakaviy ishlari yozishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarga tayyorlanishda foydalanish mumkin.

Bitiruv ishining tuzilishi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I bob. “Mahbub ul-qulub” asari adabiy manba sifatida

1.1 “Mahbub ul- qulub”da Navoiy adabiy-estitik qarashlari in’ikosi

Navoiy zukko shoir, donishmand inson sifatida o‘zining lirik asarlari, «Xamsa» va boshqa asarlarida, umuman, faoliyati davomida asosiy e`tiborni komil inson masalasiga qaratdi. Shoir asarlarida komil inson qanday bo‘lishi kerak, uning zohiriy va botiniy xususiyatlari xususida javob berishga harakat qildi. Zero, bugungi kunda ham ma`naviy yetuk kishilar, yoshlar dunyoqarashi, kamoloti haqida ko‘p gapirilmoqda. Prezidentimiz I.A.Karimovning qator asarlari, nutq va suhbatlari, umuman faoliyatlari davomida ma`naviyat, ma`rifat, o‘tmish merosimizga hurmat kabi jihatlarga e`tiborni tortmoqdalarki, bu bejiz emas. Bugungi kunda yetuk kishilarni tarbiyalashda Navoiy merosining ham, ayniqsa, «Mahbub - ul qulub» asarining alohida o‘rni bor.

«Mahbub ul - qulub» - Navoiy umrining oxirida yozilgan nasriy asardir. U muallifning g‘oyat mazmunli va sermashaqqat hayoti davomida to‘plagan boy tajribasi va xulosalarining yig‘indisidir. Navoiy bu asarni yaratishda ko‘zlagan maqsadi haqida asar muqaddimasida shunday yozadi: «... bolalikdan to qarilikka qadar ko‘hna davron voqealaridan, aylanuvchi osmon hodisalaridan, fitna qo‘zg‘ovchi dunyo buqalamunligidan zamonaning rang singari gunogunligidan ko‘p vaqt va uzoq muddat har xil hayol va taraddudlar bilan daydib yurdim, har tovor va ravishda bo‘ldim va turli yo‘llarga kirdim, yaxshi-yomonning xizmatini qildim, katta-kichikning suhbatida bo‘ldim, goh xorlik va qiyinchilik vayronasida nola qildim, goho izzat va ma’murlik bo‘stonida majlis qurdim... Goh amirlik ornida o‘tirdim va hukumat mahkamasida xalqning arz-dodini surdim va goh podshoh yonida vazirlik qildim va menga umidvor nazar bilan qaragan elga muruvvat ko‘rsatdim... Maqsadim shuki, har yo‘lda yurdim, olamda bo‘lmish har nav’ odam bilan ko‘rishdim, katta - kichikning fe’l-u atvorini o‘rgandim, yaxshi-yomonning xislatlarini tajribadan o‘tkazdim, yaxshilik va yomonliklarning sharbatini ichib, zahrini totib ko‘rdim...» («Mahbub ul qulub», 3-bet)

Navoiy hayotda ko‘rgan, kechirgan, yaxshi va yomon kunlari, mehr-u jafolarni ushbu misralarda aniq bayon eta olgan:

Gahe topdim falakdin notavonlig‘,
Gahe ko‘rdum zamondin komronlig‘,
Base issig‘-sovug‘ ko‘rdum zamonda,
Base achchig‘-chuchuk tottim jahonda.

(«M.q.», 11-bet)

Shoir hayotining xulosasi, donishmand insonning hayot, kishilar, ularning fe‘l-atvorlari haqidagi qarashlarining xulosasi sifatida «Mahbub ul qulub» yaratildi. Asarning qadimgi qo‘lyozma nusxalari kam. Ilm-fanda ma‘lum bo‘lgan qo‘lyozma nusxalardan uchtasi XVI asrga, qolganlari esa XVIII-XIX asrlarga mansubdir. «Mahbub ul qulub»ning 1565-66 yillarda ko‘chirilgan nusxasi Parij Milliy kutubxonasida, XVI asrda ko‘chirilgan deb taxmin qilingan mukammal bir nusxasi Sank-Peterburgda, 1595-96 yillarda ko‘chirilgan nusxasi ham Sank-Peterburgda, Saltikov-Shchedrin nomidagi Davlat kutubxonasida saqlanadi. Buxoro, Istambul, 1939 - yilda Toshkentda nashr etiladi. “Mahbub ul-qulub”da Navoiy bevosita o‘z davridagi deyarli barcha ijtimoiy guruh va tabaqalarga baho beradi va ularning qaysi biri yaxshi yoki yomon, qaysi biri insoniylikka, xalqqa, mamlakatga foydali yoki zararli ekanligini boshqa asarlaridagiga qaraganda kengroq, chuqurroq va aniqroq bayon etadi”. “Mahbub ul-qulub” asarini o‘rganish XX asrda A.N.Kononov tomonida boshlab berildi. Bu nashrlar ketma-ketligini quyidagicha keltiramiz: “Manbub ul-qulub” birinchi marta 1948-yil SSSR Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik Instituti. Nashrga tayyorladi A.N.Kononov va leningradda chop etildi. Ushbu asar asl qo‘lyozma tarzida arab alifbosida berildi. Ikkinchi marta “Mahbub ul-qulub” alohida kitob holida 1983-yil G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va Sanat nashryotida nshar etildi. Unga masul muxarrir va so‘zboshi muallifi Suyima Amonilla Valixonov, nasriy bayon muallifi Inoyat Maxsumov. Shundan so‘ng “Mahbub ul-qulub” asari A.Navoiyning mukammal asralr to‘plamlarida berilgan. Ular quyidagilardan iborat: birinchi

1966-yil Alisher Navoiyning 15 tomlik mukammal asarlar to'plamida berilgan. Unga tahrir hayati azolari Oybek, G'afur G'ulom, Vohid Zohidov, Aziz Qayumov, Hamid Sulaymon, Porso shamsiyev, Xodi Zarif va Ramz bobojon edi. Nashrga Porso Shamsiyev tayyorladi, muxarrir Suyuma G'aniyeva edi. Toshkentda nashr etilgan. 1998-yil 20 tomlik mukammal asarlar to'plamining 14-tomida berilgan. Bu asar bilan birga "Munshaot" va "Vaqfiya" berilgan. Nashrga Suyuma G'aniyeva tayyorlagan. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashryotida nashr etilgan. Keyin 2011-yil 10 jildlik mukammal asarlar to'plamida krill alifbosida 9-jildida berilgan. Toshkent G'afur G'ulom nashryotida chop etilgan. 2012-yil 10 jildlik mukammal asarlar to'plamining lotin alifbosida 9-jildida, 2013-yil ham 10 jildlik mukammal asarlar to'plamining 9-jildida lotin alifbosida "Lison ut-tayr", "Majolis un-nafois", "Munshaot", "Vaqfiya" asarlari bilan birga berilgan. Bu uchta nashrni ham nashrga Suyuma G'aniyeva tayyorlagan va G'afur G'ulom nashryotida chop etilgan. "mahbub ul-qulub"ga oid ikkita dissertatsiya himoya qilingan ular quyidagilar: Shavkat Hayitov "Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarining manbalari va g'oyaviy- badiiy tahlili" 1997-yil Buxoro va Hamroyeva Hulkar Naimovna "Alisher Navoiyning insonparvarlik G'oyalaridan foydalanib o'quvchilarni axloqiy-estitik tarbiyaning pedagogic asoslari" ("Mahbub ul-qulub", "Nazm ul-javohir", "Lison ut-tayr") misolida. 1999-yil. "Mahbub ul-qulub" asari haqida Natan Mallayevning "O'zbek adabiyoti tarixi " darsligida va Porso Shamsiyevning "O'zbek matnshunosligiga oid tadqiqotlar" kitobida berilgan. «Mahbub ul- qulub» falsafiy, axloqiy, ta'limiy asardir. Unda Navoiy XV asrdagi ijtimoiy tabaqa va guruhlarni tasnif va ta'rif qiladi. Asar Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Nosir Xisravning «Saodatnoma», «Ro'shnoyinoma», Sa'diyning «Guliston» va «Bo'ston», Jomiyning «Bahoriston» asarlari kabi o'ziga xos nasihatnomadir.

Ulug' shoir, davlat arbobi, adabiyotshunos va tilshunos olim Alisher Navoiyning ijodiy merosini o'rganish va tadqiq etish biz yoshlarning bugungi kundagi muhim vazifalarimizdan biri bo'lib kelmoqda. Bu ulug' zotning milliy adabiyotimizga va ma'naviyatimizga qo'shgan hissasi katta. Bu haqda Birinchi

Prezidentimiz I. A. Karimov “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asarida shunday deydi: “Alisher Navoiy xalqimizning adabiyoti, madaniyati va siyosiy tarixida alohida o‘ringa ega bo‘lgan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g‘ururi, sha’n-u sharafini dunyoga tarannum etgan o‘lmas so‘z san’atkoridir”².

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, ulug‘ bobokalonimiz shaxsiyati va ijodiga munosabat tubdan o‘zgardi. Hazratning boy adabiy merosiga to‘laqonli va haqqoniy yondashish imkoniga ega bo‘ldik. U zotning ijodini yanada chuqurroq o‘rganish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar qilinyapti, ilmiy izlanishlar ko‘lami yanada kengaymoqda. Bu yil shoir tavalludining 577 yilligi yurtimiz bo‘ylab keng nishonlandi. Shoirning adabiy asarlari, takrori yo‘q g‘azallari, pand-nasihatcha boy dostonlari haqida adabiy kechalar, mushoiralar o‘tkazilmoqda. Alisher Navoiy asarlarining tub mohiyatini anglash, ularda da’vat etilgan ezgulik, mehr-muruvvat, tinchlik va do‘stlik kabi g‘oyalarni chuqurroq o‘rganish biz yoshlarning bugungi muhim masalalarimizdan biridir. Zero, Navoiyning adabiy merosi miqdor va mazmun jihatdan beqiyos. Bobur Mirzo yozadi: ”... turkiy til bila to she’r aytibdurlar, hech kim oncha ko‘p va xo‘p aytqon emas”. Bu haqda shoirning o‘zi “Lison ut-tayr”dostonida:

Nazmu nasrim kotibi taxminshunos

Yozsa, yuz ming bayt etar erdi qiyos¹.

deb yozgan edi.

Navoiyning nafaqat ijodi, balki sermazmun hayoti ham biz yoshlar uchun namunadir. Uning bunyodkorligi, xalqsevarligi barchamizga namuna bo‘lishi lozim.

Bahrdin qatrag‘a ta’zim ila tahsin ko‘rdim,

Mehrdin zarrag‘a e’zoz ila ehson topdim.

1 Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch . – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B. 47.

2. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. – Toshkent: . Ma’naviyat, 2005. – B. 54.

Ya'ni, dengizning tomchiga ta'zim bilan tahsin qilganini ko'rdim, quyoshning zarraga e'zoz va ehson ko'rsatganiga guvoh bo'ldim deb yozadi shoir asarlaridan birida.

Birinchi Prezidentimiz "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" kitobida alohida ta'kidlaganidek: "Inson qalbining quvonch-u qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham bizning ongu shuurimiz, yuragimizga, avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi.

Alisher Navoiy tarjimai holi o'z davrida Xondamir, Vosifiy, Husayn Boyqaro, Bobur kabi tarixchi va davlat arboblarning asarlarida aks etgan.

O'zbek olimlari O.Sharafiddinov, V.Mahmud, Oybek, Ya.G'ulomov, I.Sulton, V.Zohidov, V.Abdullayev, A.Qayumov, S.G'aniyeva va boshqalar Navoiyning hayot yo'li haqida asarlar yaratishgan.

Navoiy ijodi ixlosmandlari uning she'rlarini yig'ib, "Ilk devon" (1464-1465) tuzgan edilar. "Navoiy devonlari professor H.Sulaymon tomonidan yig'ilib, tasnif etilgan. "Ilk devon" Sankt-Peterburgdagi Saltikov-Shedrin kutubxonasida (inv.564) saqlanadi"³.

Alisher Navoiyning o'zbek tilidagi dastlabki yirik asarlaridan "Hiloliya" qasidasi Sulton Husayn Boyqaroga bag'ishlangan bo'lsa, forsiy tildagi birinchi yirik asari "Tuhfat ul-afkor" qasidasi Jomiya bag'ishlangan edi. 1470-yillarning oxirida Alisher Navoiy o'zining o'zbek tilida yozgan she'rlaridan iborat ilk devoni-"Badoe' ul-bidoya" ("Badiiylik ibtidosi") ni tuzdi. Mazkur devonda 777 g'azal, 85 ruboiy, 52 muammo, 46 qit'a, 53 fard, 10 tuyuq, 10 lug'z, 3 mustahzod, 5 muxammas, 3 tarjeband, 2 musaddas bo'lib, bunday mukammal devonni tuzish Navoiygacha kamdan kam o'zbek shoiriga nasib bo'lgan. Alisher Navoiy "Badoe ul-bidoya" tuzilgandan keyingi davrda yozilgan o'zbekcha she'rlari asosida 1480-yillarning oxirida "Navodir un-nihoya" devonini tuzdi. "Mazkur devonning O'z.R FA ShI (inv.1995)dagi nusxalari nihoyatda nodir bo'lib, ular Navoiy davrida

³Ziyo uz.com sayti. Alisher Navoiy asarlari tahlili sahifasi

Hirotda Sulton Ali Mashhadiy (1487), Abduljamil kotib (1487-1488) tomonidan ko‘chirilgan”¹. 1481-1482-yillarda “Chihil hadis” (“Qirq hadis” yoki “Arbain”) asarini yozdi. Bunda Muhammad payg‘ambarning qirq hadisi to‘rtlik bilan she‘riy ifodalab berilgan.

Alisher Navoiy mansub adabiy hayotda she‘riy janrlardan g‘azal, qasida, ayniqsa, muammo yozishga qiziqish kuchli edi. Alisher Navoiy forsiy devonida 373 muammo kiritgan. 1485-yil muammo yozish qoidalari haqida maxsus ”Mufradot” asarini yaratdi.

Alisher Navoiyda “Xamsa” – besh doston yaratish maqsadi yoshligidan bo‘lgan. Bu maqsadini 1483-1485-yillarda amalga oshirdi. Asar o‘zbek adabiyoti shuhratini olamga yoyib, jahon adabiyotining durdonalaridan biriga aylandi.

“Xamsa”dan keyin Navoiy yana bir qancha asarlar yaratdi. 1485- yil o‘zining mashhur “Nazm ul-javohir” asarini yozdi, bunda birinchi xalifalardan bo‘lmish Hazrat Alining 266 ta hikmatli so‘zi ruboiy tarona shaklida bayon etilgan. O‘sha davr kitobxonlari, shu jumladan, tarixchi Xondamir bu asarni g‘oyat yuksak baholagan”¹.

1490-yilda u o‘ziga zamondosh shoirlar haqida Jomiyning “Bahoriston”, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” asarlari shaklida “Majolis un-nafois” (“Nafis majlislar”) tazkirasini tuzishga kirishib, 1492-yilda tugalladi. Shu vaqtning o‘zida Alisher Navoiy o‘zbek tilida she‘riyat nazariyasi, aniqrog‘i, aruz vazni qoidalari haqida “Mezon ul-avzon” (“Vaznlar o‘lchovi”) ilmiy qo‘llanmasini yaratdi. 1494-yilda turkiy tildagi maktublarini to‘plab “Munshaot” (“Maktublar”) majmuasini tuzdi. 1495-yilda Jomiyning “Nafahot ul-uns” asarini “Nasoyim ul-muhabbat” (“Muhabbat shabadalari”) nomi bilan tarjima qilib, uni qayta ishlab, turkiy mashoyixlar haqidagi yangi ma’lumotlar bilan boyitdi.

Alisher Navoiy 1491-1492 yillardan boshlab turkiy tilda yozilgan hamma she‘rlaridan yangi, yig‘ma devon tuzishga kirishdi va bu ishni 1498-1499-yillarda nihoyasiga yetdi. Devonning umumiy nomi “Xazoyin ul- maoniy” (“Ma’nolar

⁴Ziyo uz.com sayti. Alisher Navoiy asarlari tahlili sahifasi.

⁵O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi 1-tom. –Toshkent.:Davlat ilmiy, 2000. – B. 219.

xazinasini”) bo‘lib, 4 qismdan iborat bo‘lganligi uchun “Chor devon” deb ham atalgan. Devon shoirning butun hayoti davomida yozilgan she‘rlarini qamrab olgan, ularda Alisher Navoiyning barcha davrlaridagi dunyoqarashi, orzu-umidlari ifodalab berilgan. U forsiy she‘rlaridan tashkil topgan ”Devoni Foni” ni, forsiy tildagi 2 qasidalar majmualarini tuzib, forsiy she‘riyat taraqqiyotiga ham o‘zining munosib hissasini qo‘shdi. Navoiy she‘riyatining mavzular doirasi keng, janrlar ko‘lami xilma-xil. G‘azallari “oshiqona, orifona, rindona” (Shayxzoda) sifatlar bilan o‘rganiladi. G‘azallarida insoniy muhabbat, ilohiy ishq bilan uyg‘un holda ulug‘lanib, majoz-haqiqat ko‘prigi aqidasiga amal qilingan. Alisher Navoiy she‘riyatidagi zohiriy ma‘no yangiliklari bilan birga botiniy sifatlarni ham o‘rgangandagina ularni idrok etishga erishish mumkin.

“Navoiy she‘riyati Fitrat, Oybek, M.Shayxzoda, H.Sulaymon, N.Mallayev, Yo.Ishoqov, B.Akramov, I.Haqqulov va boshqalar tomonidan o‘rganilgan”¹.

“Shoirning 2 yil mobaynida ikkita yirik asari – “Lison ut-tayr” (“Qush tili”) dostoni va “Muhokamat ul- lug‘atayn” (“Ikki til muhokamasi”) nomli ilmiy asarlari yaratildi. Uning so‘nggi buyuk asarlaridan yana biri nasriy pandnoma yo‘sinida yozilgan “Mahbub ul-qulub” (“Ko‘ngillarning sevgani”) dir. U Sharq adabiyoti tarixida Shayx Sa‘diyning “Guliston”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Nizomiy Aruziy Samarqandiyning “Chor maqola” kabi asarlari qatorida turadi. Bu asarida Alisher Navoiy o‘zining hayot yo‘lini, boshidan kechirgan turmush mashaqqatlarini yorqin tasvirlab bergan”².

“Alisher Navoiyning adabiy va ilmiy merosini 4 faslga bo‘lish mumkin:

1. Devonlari.
2. Dostonlari.
3. Forsiy tildagi she‘riy merosi.
4. Ilmiy- filologik, nasriy va tarixiy asarlari.

Uning o‘zbek tilida yaratgan she‘riy merosi asosan “Xazoyin ul-maoni” devoniga jamlangan.

⁶Ziyo uz.com sayti. Alisher Navoiy asarlari tahlili sahifasi.

⁷O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi 1-tom. – Toshkent: Davlat ilmiy, 2000. – B. 219-220.

“Xazoyin ul-maoniy”ga qadar “Ilk devon”, “Badoe’ ul-bidoya”, “Navodir un-nihoya” devonlarini yozgan.

“Xazoyin ul-maoniy” dagi 4 devonning har birida 650 tadan 2600 g‘azal, umuman 4 devonda 210 ta qit‘a, 133 ruboiy, 86 fard, 52 muammo, 13 tuyuq, 10 muxammas, 10 chiston, 5 musaddas, 4 tarje‘band, 4 mustazod, 1 musamman, 1 tarkibband, 1 qasida, 1 masnaviy, 1 soqiynoma mavjud bo‘lib, Sharq she‘riyatining 16 turi namoyondir.

Navoiyning nasriy asarlari quyidagi guruhlariga bo‘lib o‘rganilgan.

Ilmiy-filologik merosi: "Majolisun-nafois" (1490-91; 1497-98) tazkirasi turkiy tilda yozilgan dastlabki tazkira bo'lib, unda shoir sakkiz majlis doirasida 459 shoir va adib haqida ma'lumot bergan. Birinchi va ikkinchi majlisda tazkira tartib berilganda hayot bo'lmagan shoirlar, uchinchi majlisda shoirning zamondoshlari, beshinchi majlisda Xuroson, oltinchisida Movarounnahr, Kichik Osiyo va Eron, yettinchi va sakkizinchi majlislarda temuriylar sulolasiga mansub ijodkor shoh va shahzodalar haqidagi ma'lumotlar jamlangan. “Asar Fahriy Hirotiy(1521-22), Muhammad Qazviniy(1522-23), Shoh Ali Abdulali (1598) tomonidan uch marta fors tiliga tarjima qilingan. Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarini o‘z zamonidagi turkiy lahjalar, ziyolilar nutqi, badiiy va ilmiy asarlarning leksik-grammatik xususiyatlarini forsiy til xususiyatlari bilan qiyoslashga bag‘ishladi. Jonli xalq tilida qo‘llanilgan ko‘plab so‘zlarni asarga kiritib, adabiy tilda qo‘llanilishiga sababchi bo‘ldi. O‘zigacha ishlatilgan so‘zlarning yangi ma‘no qatlamlarini ochdi. O‘zbek tili grammatikasini Mahmud Koshg‘ariydan so‘ng ilmiy asosga soldi. O‘zbek tilining badiiy va estetik imkoniyatlari kengayishiga sababchi bo‘ldi. Fors va turk tillarida yaratilgan eng yirik va e‘tiborli asarlarga murojaat qildi, shoir va olimlarni til istiqloli uchun kurashga chorladi”¹.

Aruz nazariyasiga bag'ishlangan "Mezonul-avzon"(1492) asarida arab va fors aruzi qoidalarini turkiy tilda aniq va ravon tushuntirdi. Turkiy yozma va og‘zaki she‘riyati namunalarining vazn xususiyatlarini o‘rgandi. Turkiy aruz tabiatini

⁸ Ziyo uz.com sayti. Alisher Navoiy asarlari tahlili sahifasi.

yoritish bilan birga turk she'riyati murakkab aruz tizimini boyitganini anglatdi. Bahrlar va doiralar haqidagi tasavvurni kengaytirdi. To'qqizta yangi vazn va she'riy shaklni aniqladi. Turkiy til tarixida ilk bor milliy vazn haqidagi qarashlarni ilgari surdi.

Navoiyning ilmiy-filologik merosini muntazam tadqiq qilish XX asrning 20-yillaridan yo'lga qo'yildi. Bu yo'nalishda Fitrat, Oybek, A.Sa'diy, O.Sharafiddinov, A.Hayitmetov, I.Sulton, H.Qudratullaev kabi adabiyotshunos va A.K.Borovkov, O.Usmonov, A.Rustamov kabi tilshunos olimlarning ishlari e'tiborli.

Ustozlarga bag'ishlangan asarlari: "Holoti Sayyid Hasan Ardasher"(1490-1491), "Xamsat ul-mutahayyirin" (1493-1494),"Holoti Pahlavon Muhammad" (1493-1494).

Tarix, tasavvuf va din tarixiga oid asarlari: "Tarixi muluki ajam"(1488), "Tarixi anbiyo va hukamo"(1485-1498), "Nasoyim ul-muhabbat"(1496), "Vaqfiya"(1481-1482), "Munshaot"(1498-1499).

Ijtimoiy, falsafiy, axloqiy asarlari:

Alisher Navoiyning fors tilida yozgan she'rlari asosida "Devoni Foniyy" tuzilgan bo'lib, uning muqaddimasida "Sittai zaruriya" ("Olti zarurat") va "Fusuli arbaa" ("To'rt fasl") forsiy qasidalar majmualari berilgan. "Sittai zaruriya" to'plamidagi qasidalar "Ruhul-quds" ("Muqaddas ruh"), "Aynul-hayot" ("Hayot chashmasi"), "Tuhfatul-afkor" ("Fikrlar tuhfasini"), "Qutul-qulub" ("Qalblar g'izosi"), "Minhojun-najot" ("Qutilish yo'li"), "Nasim ul-xuld" ("Jannat nasimi") kabi nomlar bilan ataladi. Ular Xoqoniy, Dehlaviy, Salmon Sovajiy, Abdurahmon Jomiy asarlari ruhida, ularga falsafiy-mantiqiy javob tarzida yozilgan.

"Fusuli arbaa"da Sulton Husayn Boyqaro madhidan so'ng "Bahor", "Saraton", "Xazon" ("Kuz") va "Day" ("Qish") vasflari keladi.

Muammo janri qoidalariga bag'ishlangan "Mufradot" (1485) fors tilidagi ilmiy asarida mumtoz she'riyatdagi bu janrni nazariy jihatdan asosladi. Muammolarni yechish usullarini o'rgatish barobarida 121 ta misol keltirdi.

Navoiyning arab tilida "Sab'at ul-abhur" ("Yetti dengiz") nomli diniy-tasavvufiy ruhda lug'at xarakteridagi asar yozgani ma'lum. Biroq bu asar nashr

etilib, yetarli darajada o'rganilmagan. "Alisher Navoiyning fors tilidagi merosi Fitrat, H.Sulaymon, N.Mallaev, Sh.Shomuhamedov, R.Vohidov, Boltayeva tomonidan o'rganilgan"⁹.

"Uning zarbulmasalga aylanib ketgan ta'birlari, baytlari, misralari, inson, xalq, bashariyat haqidagi g'amxo'rliqi, adolat, insof va to'g'rilik yo'lida olib borgan tolmas kurashi bu hassos yurakda naqadar zo'r muhabbat qaynaganiga, bu yorqin manglay miyada naqadar oliy fikrlar va g'oyalar javlon urganiga shohiddur"².

"Mahbub ul-qulub" hikmatlarida ham xuddi ana shu axloq me'yorlari haqida fikr yuritiladi. Adib butun umri davomida orttirgan hayot tajribalari asosida donishmand murabbiy sifatida insonga xos bo'lgan xatti-harakatlarni kuzatib, unga odamiylik ilmidan saboq beradi.

"Mahbub ul-qulub" ("Ko'ngillarning sevgani") pandnomasi Alisher Navoiyning eng so'nggi yirik nasriy asari bo'lib, 1500-yilda yozilgan. Unda ulug' mutafakkirning umri davomida ko'rgani, kuzatgani, boshidan kechirgani, hayotiy tashvishlarining qalb qatlam-u qavatlaridan sizilib chiqqan lo'nda, umumlashma-xulosalari o'z ifodasini topgan. Musajja' san'atining nodir namunasi sanalgan bu noyob asarning bunyod etilishi sabablarini muallif quyidagicha izohlaydi: "Bu muqaddimotdin maqsad bukim, har ko'y va ko'chada yugurubmen va olam ahlidin har nav' elga o'zumni yetkurubmen va yaxshi-yamonning af'olin bilibmen va yamon-u yaxshi xislatlarin tajriba qilibmen. Xayr va sharrdin (yomonlik, gunohlardan) no'sh va nish ko'ksunga yetibdur va laim (past, xasis, nokas) va karim zaxm va marhamin ko'nglum dark etibdur. Va zamon ahlidin bayozi as'hob (suhbatdosh) va davron xaylidin ba'zi ahbobki (ayrim do'stlar) bu hollardin xabarsiz va ko'ngullari bu xayr va sharrdin asarsizdur.

Bu nav' as'hob va ahbobga intiboh qilmoq va alarni nav' bu holatdin ogoh qilmoq vojib ko'rundiki, har toifa xisolidin vuquflari va har tabaqa ahvolidin shuurlari bo'lg'ayki, munosib el xizmatig'a shitob qilg'aylar va nomunosib el suhbatidin ijtinob vojib bilg'aylar va bari el bila maxfiy rozlaridin so'z

⁹Masharipova Z. "Mahbub ul-qulub" hikmatlarida xalq maqollari // Navoiyga armug'on. 5-kitob. – Toshkent, 2006. – B. 81.

demagʻaylar. Va shayotin makr-u firibidin boziy emagaylar. Har navʻ el suhbat va xususiyatiki, alargʻa havas boʻlgʻay, bu faqirning tajribasi alargʻa bas boʻlgʻay”¹.

Asar 3 qismdan iborat.

Avvalgʻi qism: Soir un-nosning afʻol va ahvoli kayfiyati – har xil toifa odamlar feʻl-atvori va ahvoli kayfiyati.

Ikkinchi qism: Hamida afʻol va zamima xisol xosiyati – yaxshi feʻllar va yomon xislatlar xosiyati.

Uchinchi qism: Mutafarriqa favoid va amsol surati - xilma-xil foydalar va hikmatli soʻzlarning koʻrinishi.

Pandnoma anʻanaviy “hamd”- Ollohning tanholigi (“vahdad”) va ulugʻvorligi, naʻt - Muhammad alayhissalomning maqtovi bilan boshlanadi. Asarning birinchi qismi 40 fasldan iborat. Unda “egallagan vazifasi, koʻrsatilajak taʻsiri jihatidan jamiyat taraqqiyotida belgili mavqega ega qirq toʻqqiz toifa ahlining feʻl-atvori, ahvoli xususida fikr yuritiladi. Bu safda shohdan gadogacha boʻlgan aksariyat toifa aʻzolarini uchratish mumkin”.

Navoiy turfa toifa ahllarini goh tanqidiy, goh ijobiy, goh nafratli qarashlari bilan takrorlanmas oʻxshatishlar vositasida juda chiroyli tasvirlaydi. Asarda quyidagi toifa ahllari haqida fikr yuritiladi: odil sultonlar, islompanoh beklar zikrida, zolim va fosiq shohlar, vazirlar, nomunosib noiblar, noqobil sadrlar, fosiq qozi, mufti, mudarrislar, kotiblar, nazm gulistonining xushnagʻma qushlari, imomlar, muqriylar, qissasoz va qissaxonlar, nasihat ahli va voizlar, ahli nujum, mutrib-u mugʻanniylar, tabiblar, tijorat ahli, bozor kosiblari, dehqonlar, yatim va laimlar, riyoyi shayxlar, xarobot ahli va darvishlar kabi. Navoiy fikrlarini dalillash maqsadida har bir toifaga berilgan tavsifdan soʻng sheʻriy izohlar keltiradi. Chunonchi, birinchi qismda 7 ta masnaviy, 16 ta bayt, 3ta nazm, 6 ta ruboiy va 7 ta qitʻa berilgan.

“Mahbub ul-qulub”ning birinchi qismida bayon etilgan fikrlar ulugʻ adibning hayotiy tajribalari, umumlashmasi boʻlib, unda atrofdagi voqea-hodisalardan

¹⁰ Alisher Navoiy. “Mahbub ul-qulub” Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2011. –B. 453

doimo ogoh bo'lishga da'vat etiladi. Bu da'vatlar yurt sarvaridan tortib, oddiy fuqarogacha taalluqlidir.

Asarning ikkinchi qismida komillikka erishish yo'li, tasavvuf tamoyillari haqida fikr yuritiladi. "Ushbu qismdan yomonliklardan mosivo bo'lishning eng to'g'ri yo'li nafsni riyoziyat bilan mavh etib sabr-u qanoat bilan pok yashash, ruhni chiniqtira borib, hamida axloqqa erishish xususida fikr yuritiladi. Nafsni mag'lub etib, ilohiy fayzdan bahra olishning dastlabki bekati-tavbadir. Tavbadan murod haq yo'liga kirgan solikning barcha yomon ishlardan ogoh bo'lib, ulardan butkul voz kechishi, har taraflama poklanishdir".

O'n fasldan tarkib topgan asarning ikkinchi qismida tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, sabr, tavoze' va adab, zikr, tavajjuh, rizo, ishq singari tasavvufiy istilohlar sharhlanadi. Shuningdek, har bir masala nazariy jihatdan yoritilgandan so'ng fikrlarni dalillash maqsadida bir hikoya keltiriladi. "Mahbub ul-qulub"ning ikkinchi qismi tuzilishiga ko'ra "Hayrat ul-abror" dostonidagi maqolat va hikoyatlarga o'xshab ketadi. Bu qismda 1 ta masnaviy, 3 ta qit'a, 4 ta ruboiy, 14 ta bayt keltirilgan.

"Mahbub ul-qulub"ning uchinchi qismi "Mutafarriqa favoid va amsol surati" ("Turli foydali maslahatlar va maqollar") deb nomlangan. Bu bo'limda odob va axloq masalalariga doir to'rt yuzga yaqin maqol va hikmatli so'zlar tanbehlar shaklida qo'llanilgan bo'lib, adib ular orqali pand-nasihati berib, go'zal insoniy fazilatlarni egallashga, yomon illatlardan saqlanishga, ilm o'rganishga, yaxshilarga yor, muhtojlarga madadkor bo'lib, xalq va Xoliq oldidagi burch, vazifalarini halol ado etishga da'vat etadi".

Asarning bu qismi turli foydali pand va hikmatlar, 127 ta tanbehdan iborat. "Asarning mazkur bobi oldingi boblarda bayon etilgan ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-ta'limiy qarashlarni ulug' shoirning maqollarga uyg'un hikmatli so'zlari bilan birmuncha kengaytiriladi va umumlashtiriladi. Keltirilgan tanbehlar adibning uzoq yillar davomidagi hayotiy kuzatishlar hosilasi bo'lib, o'ziga xos hukmlardan

iborat”³. Bobda Navoiy saj’ va boshqa badiiy san’atlardan mohirona foydalangan. Bu qismda 57 ta bayt, 19 ta qit’a, 12 ta masnaviy, 8 ta ruboiy, 2 ta nazm keltirilgan. Pandnomada jami 22 masnaviy, 19 ruboiy, 88 bayt, 31 qit’a, 5 nazm bor.

“Mahbub ul-qulub”dagi har bir tanbeh, bayt yoki qit’a hayotiy hikmat darajasiga ko‘tarilganki, bu tanbehlarning zamiriga xalqning ko‘p asrlik hayot tajribasi davomida to‘plagan maqol va matallarining mazmuni singdirilgan.

1.2. “Mahbub ul-qulub” asarida inson va uning kamoloti xususida

“Mahbub ul-qulub”da Navoiy bevosita o‘z davridagi deyarli barcha ijtimoiy guruh va tabaqalarga baho beradi va ularning qaysi biri yaxshi yoki yomon, qaysi biri insoniylikka, xalqqa, mamlakatga foydali yoki zararli ekanligini boshqa asarlaridagiga qaraganda kengroq, chuqurroq va aniqroq bayon etadi”.

Pandnoma “Odil salotin zikrida” sharhi bilan boshlanadi. Navoiy podshohlar va ularning xalq oldidagi burch va mas’uliyatlari haqida fikr yuritadi. Bir umrlik orzusi bo‘lgan odil podshohlarni go‘zal tashbehlarning bilan juda chiroyli tasvirlaydi. “Odil podshoh haqdin xaloyiqqa rahmatdur va mamolikka mujibi amniyat va rafohiyat. Quyosh bila abri bahordek qora tufroqdin gullar ochar va mulk ahli boshig‘a oltun bila durlar sochar. Fuqaro va notavonlar aning rifq va madorisidin osuda, zalama va avonlar aning tig‘i siyosatidin farsuda. Hirosatidin qo‘y-u qo‘zi bo‘ri xavfidin emin va siyosatidin musofir ko‘ngli qaroqchi vahmidin mutmain ”.

Asarda odil podshoh quyoshga, bahor yomg‘iri, qo‘riqchi, cho‘ponga qiyoslanadi. Xuddi shunday o‘xshatishlar “Hayrat ul-abror” dostonida ham keltirilgan. Unda shohlik sifatleri quyidagicha tavsiflanadi: “Quyosh o‘zi senga soyabon bo‘lishga intiladi. Oy yuzidagi muhr sening uzuging o‘rni. Sulaymon davlatida sen ishrat qilasan; humo qushidan boshqa narsa senga soya solmaydi. Sen podshoh Jamshid o‘tirgan joyda o‘ltiribsan, qo‘lingni qadahdan boshqa narsa

¹¹ Vohidov R, Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyot tarixi. – Toshket: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi, 2006. – B. 435.

o‘pa olmaydi. Adolat uzugingga baland osmon ”Rostlik-xaloslik” degan so‘zlarni naqshlagan. Baland martabang xutbasini esa u “Adolat bilan amiringni yurgiz!”-deb yozgan”.

Alisher Navoiy saroy amaldorlarining yaxshi yoki yomon fe‘l sohibi bo‘lishini hukmdorga bog‘liq deb bilgan, shuning uchun ham dastlab shohlar haqida fikr yuritiladi.

Podshohning eng yaqin maslahatchisi vazirdir. Vazir podshohni to‘g‘ri yo‘ldan adashmasligi, to‘g‘ri hukmlar chiqarishi uchun mas‘ul. U vazir haqida fikr yuritarkan, “Vazir vizrdin mushtarakdur va bu fe‘l aning zotig‘a ahak va alyakdur. Bu ishni pisandida qilq‘on Osaf ermishkim, nigini naqshi “qad rahimallohu man an safa ermish”. Dahr elida birovki Osafnihondur, bilgaykim, Sulaymon taxti barboddur”². Adib o‘z zamonasida hech bir durust vazir ko‘rmaganligini, qachonlardir Osaf ismli bir vazirgina insofli bo‘lganini aytadi. ”Majiduddin, Nizomulmulk singari Husayn Boyqaro saltanatining ishonchli ustunlari sanalgan vazirlar o‘z manfaatlari yo‘lida hamma narsani, hatto, insonni ham qurbon qilishga tayyor turganliklariga bir necha marta guvoh bo‘lgan ulug‘ mutafakkir bunday toifa vakllarini keskin tanqid qiladi: Bu zolimlar yurtni barbod berguvchilardir va mulk ahli yig‘ishturg‘onlarin bitirguvchilardur. Avlo ulkim, bular zikrida kishi xoma surmagay... Zahr berib bemor o‘lturguvchi tabib, bularning holig‘a mushobehdur va qarib... Bular, jumlası chayonlar, xaloyiqqa yetkurur ziyonlar”. Bilamizki, Navoiy ham 1472-1476-yillarda vazir lavozimida faoliyat ko‘rsatgan.Uning faoliyati davomida xalqning ahvoli anchayin yaxshilangan.

Mamlakat tinchligini ta‘minlovchi, qo‘riqllovchi yana bir toifa borki, Navoiy ularga tanqidiy ko‘z bilan qaragan.”Yasog‘liq degan qaro cherik, Yajuj va Ma’jui xaylig‘a sherik . Emgakdin alarg‘a orom yo‘q, yasoq tortardin bir nafas kom yo‘q. Ishlari talay olg‘onni talamoq, yot yurtda chugurtkadek sabza va yafrog‘ni yalamoq.

12 Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2011. –B. 457.

Ruboiy:

Ul qavmdin a'juba xaloyiq bo'lmas
Kim, me'dalari harom yerdin to'lmas.
O'lguncha balo chekib erurlar mavjud,
Chin bo'ldi bu da'voki, yasog'liq o'lmas.

Asarda shayx ul-islom, qozi, muftiy va mudarrislar haqida ham fikr yuritilib, ularning qilgan yaxshi va yomon ishlari elga ibrat qilib ko'satiladi. Xususan, shayx ul-islom musulmonlar peshvosi bo'lib, musulmonlar uning yo'lidan borishlari lozim deyiladi. U islom dinining himoyachisi va targ'ibotchisi bo'lishi kerak. Rad etib bo'lmas darajada haq so'zni so'zlovchi, shariat qonunlarida mustahkam va barqaror turuvchi, fayzli va obro'li odam bo'lmog'i shart. Shunday bo'lgandagina uni "shayx ul-islom" desa bo'ladi, deydi. Shundaylardan birini misol qilib keltiradi.

Bayt:

Mundin o'ldi muqarrabi Boriy,
Shayx al-islom piri Ansoriy

Qozilar musulmonlarning yaxshi va yomon ishlari yuzasidan hukm chiqaruvchilar deb ta'riflanadi. Bu toifa ahlini Navoiy cholg'u asbobiga o'xshatadi. "Soz toridekkim, e'tidoldin tajovuz qildi, tuzuki buzuldi. Ulki hukmi el moli va jonig'a joriy bo'lg'ay, kerakkim, da'bi muqmir shiori bo'lg'ay. Ayog'ikim, siroti mustaqimdin toyildi. Vayl chohi tubin maqom qildi. Bu ishni o'zi qilurmen degan beboku kozib, kozibi bebokka payg'ambar shar'i hokimlig'ig'a ne munosib" Navoiy tabiblarni ham tanqid qiladi. Tabobat fanidan savodsiz tabib xuddi jallodning shogirdi kabidir. U tig' bilan o'ldirsa, bu zahar bilan azoblaydi. Shubhasiz, jallod bunday tabibdan yaxshiroqdir: chunki, u gunohkorlarni o'ldiradi, bu esa begunohlarni halok qiladi deb ta'riflaydi.

Bayt:

Hoziq tabibi xushgo'y tan ranjig'a shifodur,
Omiyyu tundu badxo'y el jonig'a balodur.

“Nazm gulistonining xushnag‘ma qushlari” bobida shoirlar qushga o‘xshatilgan. Shoirni qushga o‘xshatish adabiyotda oldindan bor edi. Bu yerda shoirlarning she‘r ijod qilishi bilan qushlarning sayrash xususiyati asos qilib olingan. Navoiy shoirlarni 5guruhga ajratgan.

”Avvalg‘i jamoat-nuqudi kunuzi ma‘rifati ilohiydin g‘aniylar va xalq ta‘rifidin musta‘niylardur. Ishlari maoniy xazoinidin ma‘rifat javharin termak va el fayzi uchun vazn silkida nazm bermak. Nazm adosi bag‘oyat arjumand va benihoyat sharif va dilpisand o‘ldug‘i uchun oyoti kalomda nozil bor va hadisi mu‘jiz nizomda tilagan topar, chun maal-qasd emas, el hurmati jihatidin ani she‘r demas”.

“Bu guruh ijodi mohiyatini to‘la tushunib olish uchun tasavvufda uch bosqich, ya‘ni shariat, tariqat va haqiqat borligini ko‘z oldimizga keltirishimiz kerak. Demak, birinchi guruh shoirlari faqat haqiqatni qalamga olgan. Ya‘ni bunday sohibi qalamlar asarlarida to‘g‘ridan to‘g‘ri Olloh taolo, uning sirlari, so‘zlari ta‘riflangan”¹. Alisher Navoiy bunday shoirlarning peshvosi deb amir ulmo‘min Hazrat Alini ko‘rsatadi. Yana forsiylardan Shayx Fariduddidin Attor, “Masnaviyi ma‘naviy” muallifi Jaloliddin Rumiyni aytadi.

Ikkinchi guruh shoirlariga haqiqat sirlariga majoz sirlarini aralashtirib, o‘z fikrlarini shu uslubda ifoda etuvchilarni kiritadi. Bular Shayx Muslihiddin Sa‘diy Sheroziy, Amir Xusrav Dehlaviy, Shayx Zahiriddin Sanoiy, Shayx Avhadiddin, Xoja Shamsiddin Muhammad Hofiz.

“Demak, borliq olamni va uning sarvari bo‘lmish insonni, uning muhabbatini kuylashni birlamchi hisoblagan, shu yo‘l bilan ramzan Ollohga ishqni ifodalagan shoirlar ikkinchi guruhga kirar ekan. Ular haqiqat bilan majozni omixta qilib yozadi. Oddiylashtirib tushuntirganda, ular yor deb go‘yo Yerdagi ma‘shuqani tasvirleydi-yu, undan o‘sha haqiqiy yorni ko‘zda tutaveradi, ikkalasi aralash keladi.”

Uchinchi guruh shoirlar asarlarini “ma‘joziy ma‘nodadir” deb ta‘riflaydi shoir. Ulardan quyidagi shoirlarni misol tariqasida ko‘rsatadi: Kamol Isfahoniy,

¹ Sultonmurod Olim.”Mahbub ul- qulub”da shoirlar va oshiqalar tasnifi // O‘zbek tili va adabiyoti, 2010. 6-son. – B. 38.

Hoqoniy Shervoniy, Hoju Kirmoniy, Mavlono Jaloliddin, Anvari, Zahir, Abdulvosi, Salmon Sovajiy, Nosir Buxoriy, Kotibiy Nishopuriy va Shohiy Sabzavoriy.

Mavlono Jomiyni to'rtinchi guruhga kiritib, "birinchi guruh ravishida so'zi sharafligi va so'nggi guruhning ham uslubi go'zalliklarida kamol egasidirki, dunyodagi ilohiy haqiqat shaydolari ham, pok insoniy muhabbat ahllari ham bularning latif va ma'nodor so'zlari bilan xushnuddirlar va tarqatgan ma'rifatlari bilan huzur qiladilar",² -deya ta'riflaydi.

Bilamizki, "Mahbub ul-qulub" –pandnoma asar. Unda pand-nasihati, o'giti birinchi o'rinda turadi. Shuning uchun shoirlar zikridagi fasl ham ana shunday tanqid-u o'gitdan xoli emas. Yuqorida sanalgan to'rt guruh ta'rif-u tahlili tugagach, Navoiy endi shoirlarning yana bir "adno", ya'ni past tabaqasini –beshinchi guruhni qalamga oladi: "Yana adno tabaqasi jamoatedurlarkim, nazm bila faqat ko'ngullar xushnud va xursand va roziyu bahramanddurlar"-deya ta'riflaydi. Qizig'i shundaki, bu toifa shoirlarning ko'pchiligining she'rida ma'no ozroq va shoirlik da'volari ko'proqdur.

"Ruboiy:

A'lolari ularning eng yaxshisidir,
Tubanlari esa barcha tubanlar tubani.
O'rtoqlari esa hech narsaga yaramaydi,
Bilgilkim, yaxshisi ulardan og'iz ochmaslik kerak"¹.

Asarning keyingi bobida kotiblar haqida so'z yuritiladi. Kaykovusning "Qobusnoma" asarida kotibning ijtimoiy ahvoliga ko'ra odobi qanday bo'lishi lozimligi, unda qanday fazilatlar bo'lishi bayon qilinarkan, shu fazilatlarni o'rgatishga dasturilamal vazifasini o'tovchi hikoyatlar keltirilgan. "Mahbub ul-qulub"ning "Kotiblar zikrida"gi faslida bironta ham hikoyat uchramaydi. Navoiy

¹ Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2011.–B. 458.

² Alisher Navoiy. "Mahbub ul-qulub". Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2011. B-432.

kotiblar haqida so‘zlarkan, yaxshi yozilgan xat va xatga qo‘yilgan nuqtalar, yuzga go‘zallik baxsh etadigan xoldek oq qog‘oz jamolini bezaydi, deydi. Yana, yomon kotibning joyi qalamdondek chuqurlik bo‘lsin, boshi esa qalamdek yara va qora bo‘lsin, deb tasnif beradi.”Savodsiz kotib o‘quvchini tashvishga qo‘ygani, ortiqcha mehnat sarflashga majbur qilgani holda, o‘z mehnati, butun sa‘yi harakatlarini ham yelga sovuradi. Kishining o‘zi qilgan ishni o‘zi yo‘qqa chiqarishi, o‘z qadr-qimmatini o‘zi oyoq osti qilishi-o‘zi yiqqan xirmonga o‘zi o‘t qo‘yishi bilan barobardir”¹.

“Kadxudolig‘ sifati va xotunlar zikrida”-oilaning tinch va farovon bo‘lishi ayolga bog‘liq deb ko‘rsatiladi. Yaxshi xotun- oilaning davlati va baxti. Uyning ozodaligi undan, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan. Husnli bo‘lsa-ko‘ngul yozug‘i, xushmuomala bo‘lsa-jon ozig‘idir. Oqila bo‘lsa, ro‘zg‘orda tartib-intizom bo‘ladi, asbob-anjomlar pokiza va saranjom turadi-deb ayollikning yaxshi sifatlarini aytib o‘tadi.

Xulosa qilib aytganda, asarning ushbu qismi inson o‘z aksini ko‘zguda ko‘rgandek aniq va ravshan yoritib berilgan. Har bir kasb egasining yaxshi va yomon fazilatlari boshqalarga ibrat bo‘lsin uchun, bir-biriga o‘xshamagan tashbehlardan foydalanilgan. Keltirilgan misollar esa qisqa va aniq. Asarning ikkinchi qismi ham xuddi shunday yoritib berilgan.

¹ Masharipova Z. “Mahbub ul-qulub” hikmatlarida xalq maqollari”. Navoiyga armug‘on. 5-kitob. Toshkent. 2006. B.126.

II bob. Navoiy axloqiy-ta'limiy qarashlarining in'ikosi

2.1 “Mahbub ul-qulub”da ilmiy-marifiy masalalarning nazariy asoslari

Alisher Navoiyning eng so‘nggi yirik nasriy asari “Mahbub ul-qulub”dir. “Mahbub ul-qulub”da shoirning umri davomida ko‘rgani, kuzatgani, boshidan kechirgani, inson va yashash bilan bog‘liq ko‘pdan-ko‘p mulohazalari bayon qilingan. Ushbu bitiruv malakaviy ishining birinchi bobi “Mahbub ul-qulub”ning tuzilishi va undagi masalalar”. Unda “Mahbub ul-qulub”ning tuzilishi, birinchi, ikkinchi, uchinchi faslidagi masalalar o‘rganiladi. Birinchi qismdagi masalalar batafsilroq yoritiladi.

Adibning “Mahbub ul-qulub” asari biz bilamizki, umrining oxirida yozilgan asari hisoblanadi. Shuning uchun ham bu asar Alisher Navoiyning butun hayoti davomida ko‘rgan-kechirganlari, orttirgan hayot tajribalari, 60 yillik hayot mahsuli deyishimiz mumkin. Bu asarda, asosan, ilmiy – marifiy, odob-axloqqa oid qarashlar aks ettirilgan. Asarda til odobi, inson talim-tarbiyasi va nutq odobi haqida haqida ko‘plab misollar keltirilgan. Navoiy o‘z asarlarida nutqning kishilar kundalik ehtiyojini qondiruvchi nodir vosita ekanligini qayd etdi. “Mahbub ul-qulub” asarida voizlar til odobi xususida fikr yuritisa, “Muhokamat ul- lug‘atayn” asarida o‘zbek adabiy tilining boyligini e‘tirof etdi. Nainki e‘tirof etdi, balki tilning ijtimoiy hodisa ekanligini ta’kidladi. So‘zning tarixiy-madaniy xizmati beqiyos, ammo til imkoniyatlari nutq jarayonidagina ochib beriladi. Agar nutq bo‘lmas ekan, tilning, so‘zning cheksiz imkoniyatlari ro‘yobga chiqib chiqmay qolaveradi. “Majolis un-nafois” da so‘zning voizlar hayotida tutgan o‘rni haqida ham shaxsiy mulohazalar bayon qilinadi. “Nazm ul javohir” asarida esa so‘z qudratli vosita ekanligi, insonga hayotiy zarurat sanalishi aytib o‘tiladi. Tarixdan ma’lumki, Navoiyning o‘zi ham mohir notiq bo‘lgan va shirin kalomi, o‘tkir tafakkuri bilan xalq qalbidan joy olgan va o‘z asarlarida ham xaloyiqqa nafi tegadigan, el yuragidan joy oladigan shirin zabon so‘zlar so‘zlashni, chiroyli va ravon nutq tuzish yo‘llarini o‘rganish lozimligi haqida mukammal fikrlar bayon etgan.

Navoiy tilni o`sb, rivojlanib boruvchi, jamiyatning ehtiyojiga muvofiqlashuvchi zarurat ekanligini anglab, tillar o`zaro aloqada bo`ladi, bir-biriga chatishadi deb hisoblaydi. "Mahbub ul-qulub"da Navoiy bevosita o`z davridagi deyarli barcha ijtimoiy guruh va tabaqalarga baho beradi va ularning qaysi biri yaxshi yoki yomon, qaysi biri insoniylikka, xalqqa, mamlakatga foydali yoki zararli ekanligini boshqa asarlaridagiga qaraganda kengroq, chuqurroq va aniqroq bayon etadi.

Navoiy kishining nutq qobiliyatini tug`ma ekanligini ta`kidlaydi. Alisher Navoiyning nutq madaniyati masalalariga bag`ishlangan fikrlari yanada mukammalroq ifodalangan asari "Mahbub ul-qulub" dir. Chunki shoir bu asarida tilning ahamiyati, undan foydalanish, nutq so`zlovchi dilidagi fikrni to`g`ri aks ettirish lozimligi haqida fikrlar bayon qiladi.

"Saodatbaxsh ruh zuloliga matla` ham til. Tilga iqtidorlig`-hakimi xiradmand, so`zga ixtiyorsiz-layni najand. Tilki fasih va dilynazir bo`lgay, xubroq bo`lgay agar ko`ngil bila bir bo`lgay" deb yozadi Navoiy.

Ma`nosi: "Saodatbaxsh ruhning tiniqligi manba ham til, baxtsizliklar yulduzining boshlanishiga sabab ham til. Tilga kuchi yetadigan kishi aql podshosidir: so`zga ahamiyat bermaydigan kishi la`natlangan, pastdir. Til go`zal va dillarni olovlantiruvchi bo`lishi bilan birga, so`zlovchining dilidagini aks ettirsa, yanada yaxshiroq bo`ladi".

Navoiy til deganda nutqni ko`zda tutgan. Til, ya`ni so`z o`zining ko`p yaxshi fazilatlarini bilan nutq uchun material ekanligini, nutqning qo`polligi, maqsadga muvofiq bo`lmasligi so`zlovchiga zarar yetkazishini alohida ta`kidlab o`tadi.

Mayin, yoqimli, shirali ovoz bilan so`zlash odobi haqida, o`ylamasdan so`zlamaslik lozimligi haqida: "Tildin azubat dilpisanddur va miynat sudmand. Chuchuk tilki achig`liqqa evruldi, zarari oni bo`ldi. Chuchuk so`z sof ko`ngullarga nushdir... So`zni ko`ngulda pishqormaguncha tilga kelturma, harnakim ko`nglungda bo`lsa, tilga surma" deydi. Buning ma`nosi shundayki, tilning shirin, yoqimli va yumshoqligi foydadir. Chuchuk til achchiqqa aylansa, tinglovchiga

zarar yetkazadi.

Nutq

nazariyasi bilan jiddiy shug'ullangan shoir "Mahbub ul-qulub" asarining 24-bobini voizlik ilmiga bag'ishlaydi. Navoiyning o'zi ham notqlik san'atini o'z davrida yuksak darajaga ko'targan. "Tilga ixtiyorsiz-elga e'tiborsiz" yoki "Ma'dani inson gavhari so'z durur, gulshani odam samari so'z durur" deb yozadi. Navoiy 24 bob "Nasihat ahli va voizlar zikriga" bag'ishlangan bo'lib, shoirning fikricha "voiz uldurki, majlisg'a kirgan to'lg'ay va to'la kirgan holi bo'lg'ay". "Mahbubul-qulub" da "Og'ziga kelganni demoq - nodonning ishi", "Aytar so'zni ayt, aytmay so'zdan qayt", "Chin so'z-mo'tabar yaxshi so'z-muxtasar" kabi hikmatli so'zlar, maqollar anchagina. Navoiy ham shu mazmundagi baytlar yaratadi. Shoir nazarida so'z o'likni tiriltirish kuchiga ega:

Ham so'z ila elga o'limdin najot,

Ham so'z ila topub o'luk tan hayot.

Ba'zan bir so'z bilan tirik vujud, salomat inson ham jonsiz o'lukka aylanishi mumkin. Yolg'on so'z ham shunday qudratga ega:

O'luk gar andin erur joni pok,

Valekin tirikni ham aylar halok.

Navoiy ta'kidlashicha, shirin so'z bilan ko'p ishlar amalga oshadi. Achchiq may, boda ham chuchuk til bilan uzatiladi. Hatto "chuchuk so'z elga izhor" etish orqali u kim bo'lmasin, "har nechakim ag'yor zurur yor" ga aylanadi.

Xalqimiz tili achchiq, inson ko'ngliga ozor beruvchi kishilarga "tili zahar", "tilidan zahar tomadi" kabi nisbatlarni beradi. Bunday kishilardan hamma o'zini chetga tortadi. Dildan suhbatlashishni istamaydi, aksincha, zarurat yuzasidangina muomala qilishga majbur bo'ladi. Navoiy bu taxlit "achchiq so'z, anfos" lik kishilardan "istig'no" zarurligini o'rinli ta'kidlaydi:

Har kimki achchiq bo'ldi so'zi, anfosi,

Bor suhbatidin xalqning istig'nosi.

Navoiy soʻzni ajib, sehrlil va qimmatbaho gavhar sifatida eʼzozlaydi. Koʻpgina baytlarda, ayniqsa, “Xamsa”, “Mahbub ul- qulub” singari asarlarida soʻz, uning oʻrni, inson hayotidagi ahamiyati, soʻzlash madaniyati, soʻzning badiiy ijoddagi mavqeyi, soʻz odobi kabi tomonlar xususida mulohazalar bildiradi. Shoir nazarida “Soʻz jahon bahrida durdona”, inson qalbining maʼdani- “Maʼdani inson guzari soʻz”, “gulshani odam samari”, “ajab guzar”, “bahr-u mavjvar”, “dur”, “javhari ruz”, “aytib sovumas tarona”, “olib qurimas xizona” - tunganmas xazina:

Aytib sovumas tarona sen-sen,
Olib qurumas xizona sen-sen.

Asarda ilmiy-marifiy qarashlarni yanada chuqurroq dalillash uchun unga yanada chuqurroq nazar tashlaymiz. Asarda insonni ilmga, maʼrifatga boshlashga xizmat qiladigan soha tasvvufga ham alohida toʻxtalib, urgʻu berib oʻtiladi va bunga quyidagi maʼlumotlarni keltirish mumkin. “Mahbub ul-qulub” asarining ikkinchi qismida ham tasavvufiy istilohlar haqida xuddi shunday fikrni aytish mumkin.

“Tariqatda maqomot va hol tushunchalari muhim oʻrin tutadi. “Maqomot”- maqom (manzil, bekat) soʻzining koʻpligi boʻlib, solikning ruhiy-maʼnaviy kamoloti bosqichlarini anglatadi. Abu Nasr Sarroj tariqatning quyidagi maqomlarini qayd etgan:

- 1.Tavba
- 2.Varaʼ
- 3.Zuhd
- 4.Faqr
- 5.Sabr
- 6.Xavf
- 7.Rajo
- 8.Tavakkul

9.Rizo²

Navoiy asarida ana shu maqomlarni asos qilib olgan va ularni to'laroq bayon etish uchun hikoyatlarni keltirgan. Birinchi hikoyat Tavba bilan bo'g'liq.

Tavba-shariatda vojib, tariqatda shart, sulukda lozim bo'lgan tushuncha. Tavba insonning qilgan gunohlaridan pushaymonligi, gunohlarining kechirilishini Tangridan iltijo qilib so'rashi va Haq yo'lga qadam tashlashi. Tasavvufda solikning Parvardigor sari safari bo'lsa, bu safar manzillari-maqomlari yettitadir. Birinchi maqom tavbadir. Tasavvuf istilohida tavba ruhning bedorligidir, deb ta'rif qilinadi.

Najmiddin Komilov ham o'zining "Tasavvuf" asarida bu maqomotning asl mohiyatini ochib beradi."Tavba - qaytish demak, ya'ni kamolotga, oliy axloqiy sifatlarga qaytish. Tavbani bob ul-abvob-eshiklarning eshigi ham deydilar, chunki tariqatga qadam qo'ygan odamning niyati va mohiyati, avvalo, shu tavbasida ayonlashadi. Tavbaning haqiqati shuki, solik xudoga yetishish yo'lida g'ov bo'ladigan jamiki narsalardan yuz o'girishga qasamyod etadi, butun intilishi, tavajjuhini Allohga qaratadi, avvalgi hayot tarzidan butunlay voz kechadi. Tavba kufrdan qaytish, shariatda man etgan nahy va yomon ishlardan qaytish, zamima axloqdan hamida axloqqa qaytish, Haqning g'ayri bo'lgan narsalardan qaytish kabilarni o'z ichiga oladi"¹. "Mahbub ul-qulub" mohiyatan insonni komillikka, insoniylikka, odob – axloqqa yetaklaydigan tarbiyaviy, falsafiy asar deyish mumkin. Asarda juda ko'p ilmiy-ma'rifiy qarashlar juda ko'p, uni qancha ko'p o'rgansak, shuncha ko'p bitmas tuganmas xazina chiqib kelaveradi.

¹Komilov N. Tasavvuf. –Toshkent: Movarounnahr, 2009.–B..

²Komilov N. Tasavvuf. –Toshkent: Movarounnahr, 2009. –B.27.

2.2. Asarda ta'lim-tarbiya masalasi

“Mahbub ul-qulub” yuqorida ta'kidlaganimizdek, tarbiyaviy asar. Asarda odob-axloq, inson kamoloti haqida fikr yuritiladi. Asarda komil inson g'oyasini o'rtaga tashlanadi. Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari komil inson tarbiyasiga doir muhim manbalardandir. Ayniqsa, uning ikkinchi qismida ma'naviy barkamollikka oid qator fazilatlar sharhlanadiki, ulardan yoshlarimiz uchun eng zarurlaridan biri qanoatdir. Qanoatga shunday ajoyib ta'rif beriladi: “Qanoat – bir chashmadirki, olgan bilan uning suvi qurimaydi; u bir xazinadirki, undagi boylik sochilgan bilan kamaymaydi. U bir ekinzorki, urug'i izzat va shavkat hosilini beradi; u bir daraxtdirki, unda qaram bo'lmaslik va hurmat mevasi border. Qanoatli darvishning quruq noni ta'magir shohning xitoycha dasturxonidan yaxshiroq; faqirlik yo'lida farog'atlining yovg'on umochi olg'ir badavlatning nabotlik ovqatidan totliroqdir. Shoh uldirki, olmaydi-yu beradi, gadoy uldirki, sochmaydi-yu teradi. Qanoatda tinchlik va farog'at bo'lganiday, aksincha, tamada razillik va uqubat bor”. Darvoqe, qanoat bilan tabiatini toblagan inson mol-davlat ilinjida olis yurtlarda sarson-sargardon kezmaydi, obro'-e'tiborini yerga urmaydi, oilasi va xalqining sha'niga dog' tushirmaydi.

Asarning uchinchi qismidagi ta'riflar biri-biridan qimmatbaho ma'naviy duru gavharlardir. Xususan, saxovat va himmat to'g'risidagi ta'rifda ko'ngil mulkini zabt etuvchi quyidagi mushohadalar mavjud: “Himmat ahlining ixtisosi – saxovatdir; bu ulug' sifat – pokiza kishilarga xosdir. Odam – bir badan bo'lsa, himmat uning jonidir; himmatlilardan olam ahli uchun yuz ming sharaf va shukuh yetishadi... Himmatsiz odam – xazina topsa ham buyuklarga teng bo'lmas”. Ulug' shoir boshqa bir asarida naql qilishicha, himmat-saxovat va homiylikni kasb-koriga aylantirgan Hotamtoydan o'zingizdek himmatli boshqa bir kishini ko'rganmisiz, deb so'raydilar. Hotamtoy bir kuni dasht ahliga yuz tuya, son-sanoqsiz qo'ylar so'yib, ziyofat berganini, shu orada toza havo olish uchun dashtga chiqib, o'tinchi cholni uchratganini, uni orqalab olgan tikanlari zahmatidan ozod bo'lib, Hotamtoy ziyofatiga kirib orom olishga da'vat etganini, chol esa rad etib, birov bergan

xazinadan ko‘ra, o‘z qo‘l kuchi bilan ishlab topgan bir dirham afzalligini aytib, sen ham Hotamtov minnatini eshitgandan ko‘ra, ushbu tikanli o‘tin zahmatini tortaql, deya javob berganini eslaydi va shunday xulosani bayon etadi:

Ulkibu yanglig‘ so‘zi mavzun edi,

Mendin aning himmati afzun edi.

Demak, tamasizlik, qanoat oliyhimmatlikning eng yuksak bosqichi ekan. Navoiy himmat sharhi uchun tabiatdan ham shunday juda oddiy, ammo ajoyib va g‘aroyib misollar topib, badiiy talqin etadiki, uning mahoratiga qoyil qolmay iloj yo‘q:

Tuxm yerga kirib, chechak bo‘ldi,

Qurt jondin kechib, ipak bo‘ldi.

Lola tuxmicha g‘ayrating yo‘qmi,

Ipak qurticha himmating yo‘qmi?

Tuxm, ya‘ni lola urug‘i – yorug‘ dunyoni tark etib, yer bag‘riga kirdi, g‘ayrat-shijoat ko‘rsatib tomir otdi, tuproqni yorib chiqib o‘tdi, lola guli bo‘lib ochilib, olamga go‘zallik bag‘ishladi. Qurt o‘z jonidan kechib, o‘z vujudini qurbon qilib, pilla o‘radi. Shu yo‘l bilan insoniyat olamini kiyintirgulik ipak hadya etdi. Arzimas bir urug‘ va jonzot g‘ayrat va himmat bilan bunyodkorlik ko‘rsatdi. Ey odamzot, sen koinotning gultojisan, sengagina ravo ko‘rilgan tafakkur va amal koinotdagi boshqa biror jonzot-u jonsiz unsurda yo‘q. Nahotki, oddiygina lola urug‘ichalik g‘ayrating, ipak qurtichalik himmating bo‘lmasa, deya nido chekmoqda Navoiy. Bunday ta‘sirchan nido har qanday dangasa, insonlik g‘ayrati, g‘ururi, himmati mudragan o‘smirni ma‘naviy-ruhiy uyg‘oqlikka da‘vat etsa, ajab emas. Darvoqe, har bir fuqaro insonlik g‘ururi, nodir iste‘dodi, g‘ayrat-shijoati bilan mehnat qilib, halol rizq-ro‘z undirsa, shuning o‘zi oliyhimmatlik, ma‘naviy barkamollikdir.

Navoiy asarlaridagi aql-zakovat durdonalarini o‘zlashtirish ham barkamollikka erishishning muhim omillaridandir. “Mahbub ul-qulub”dagi satrlarning ko‘pchiligi shu qadar aql-zakovat bilan yo‘g‘rilganki, ular xalq

maqollari darajasida purma'no va mashhur bo'lib ketgan. Masalan: "Chin so'z mo'tabar, yaxshi so'z – muxtasar", "Bilmaganni so'rab o'rgangan – olim, orlanib so'ramagan – o'ziga zolim", "Oz-oz o'rganib – dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib – daryo bo'lur". Asardagi chin so'z va uni aytish odobi, me'yor haqidagi mana bu misralar ham barkamollik tarbiyasida ahamiyatlidir:

Xiradmand chin so'z din o'zga demas,

Vale bori chin ham degulik emas.

Kishi chinda so'z desa, zebodurur,

Necha muxtasar bo'lsa, avlodurur.

Alisher Navoiy ijodining aksariyat qismi barkamol avlod tarbiyasiga bag'ishlangan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu asarlar mazmuni va g'oyalarini o'qib o'zlashtirishning o'zigina kifoya emas. Ular yoshlarimizning hayoti va faoliyatida o'zining amaliy ifodasini topmog'i zarur.

Alisher Navoiy ilm, ma'rifat haqida ajoyib fikrlarni olg'a surdi. U aql, ilm insonning eng go'zal va zaruriy fazilatlaridan biri, har bir kishining eng muhim burchi ilm olishdir, deb hisobladi. Navoiyning fikricha, ilm-fanni egallash uchun yoshlikdan boshlab astoydil o'qish-o'rganish kerak: "Yoshligingda yig'gil bilimni, qarigach sarf qilg'il ani", degan shoirning o'zi ham juda yoshligidan ta'lim oladi, o'qishga beriladi. U yoshligidanoq ko'p she'rlarni yod bilgan. Jumladan, Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" ("Qush nutqi") asarini bolalik chog'laridayoq qayta-qayta o'qib, yod olgan. Alisher Navoiy keyinchalik maktab va maorif masalalariga katta ahamiyat berdi. U mehnatkash xalq bolalarini o'qitish va tarbiyalash uchun maktablar ochish va madrasalar qurish to'g'risida g'amxo'rlik qildi. Alisher Navoiy Astrobodda surgunda yurganida podsho Husayn Boyqaroga yozgan xatida o'g'il va qiz bolalar uchun maktablar ochishni talab qilgani, shaxsan o'zi madrasalar qurishda tashabbus ko'rsatgani buning yaqqol dalilidir. Navoiyning fikricha, maktab xalqqa nur keltiradi, unga to'g'ri yo'l ko'rsatadi, bolalarni bilimli qiladi. U o'zining "Ixlosiya" madrasasi yonida maktab ochib, bolalarni o'qitish va tarbiyalash uchun zarur sharoit yaratib, buning uchun lozim

bo'lgan mablag' ajratadi. Navoiy dars beruvchini quyoshga o'xshatadi va bu quyosh o'z atrofidagi yulduzlarga nur sochadi, ya'ni hali ilmdan bexabar bo'lgan toliblarga ilm nurini sochadi, ma'rifat beradi, deydi. Asarning uch bobi ham ta'lim-tarbiya, odob-axloq to'g'risida. Masalan, birinchi qismning birinchi fasli "Odil salotin zikrida" bilan boshlangan bo'lsa, "darveshlar zikrida" nomi ostida tugaydi. Yaxshi podshoh bo'lish uchun ham, yaxshi vazir bo'lish uchun ham, yaxshi noib bo'lish uchun ham, eng avvalo, yaxshi ta'lim-tarbiya kerak. Bu xislatlar haqida asarda to'liq keltirilgan. Asarning ikkinchi qismida odob-axloq, ta'lim-tarbiya masalaiga chuqurroq kiriladi va tavba nima-yu tavakkul nima, barcha-barchasiga to'xtalib o'tiladi. Ta'lim-tarbiya masalasi ikkinchi qismda yaqqolroq ko'ringan.

Alisher Navoiy ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlarini ko'proq barkamol insonni ifodalovchi ijobiy obrazlar yaratish orqali bayon qiladi. Ilm-ma'rifat, axloq-odob masalalariga doir fikrlarini esa ilmiy-falsafiy va didaktik asarlarida bayon qiladi. Navoiy aql kuchiga cheksiz ishonadi, komil ishonch bilan ilm-fanning fazilati juda katta, deb hisoblaydi. Umuman olganda, Alisher Navoiyning barcha asarlarida ta'lim-tarbiya, odob-axloq, tasavvufona ruh ustunlik qiladi. Alisher Navoiyning inson haqidagi qarashlari uning ilohiyot va koinot, ular o'rtasidagi bog'lanish singari masalalarga aloqadordir. Shoirning ta'limotiga ko'ra, atrofidagi borliqning paydo bo'lishi Xudoning o'z husnini koinotda namoyon qilishga muxtojligi ifodasidir, deb tasavvur qilinadi. Shunga ko'ra, dunyoning yaratilishi bir qonuniy-tabiiy jarayon hisoblanadi.

Shoirning bunday falsafiy qarashlari «Mahbub ul-qulub» asarida izchil va har tomonlama bayon etilgan. Buyuk insonparvar Alisher Navoiy o'rta asrdagi Uyg'onish davrining boshqa ulug' zotlari singari butun hayoti bilan haqiqiy inson qanday bo'lishi lozimligini ko'rsatdi. U o'z davridagi nohaklikka, adolatsizlikka qarshi kurashdi, amaldorlarning o'z vazifalarini suiste'mol qilishlarini va ta'magirliklarini fosh etdi, ojiz, muhtoj kishilarni o'z himoyasiga oldi. Alisher Navoiy madaniyat va san'atning chinakam homiysi sifatida taniladi. Uning faoliyatida ijtimoiy-siyosiy masalalarni to'g'ri hal etishga intilish, jamiyatdagi barcha ijtimoiy qatlamlarga, barcha qavmlarga bir xil munosabatda bo'lish, hech

qaysi birini kamsitmaslik, hammaning manfaatiga barobar xizmat qiladigan jamoat binolarini qurishga alohida e'tibor berish oldingi o'ringa chiqa boshladi. Xondamirning qayd qilishicha, 80-yillar davomida Alisher Navoiy o'z mablag'lari hisobidan Hirotda va mamlakatning boshqa shaharlarida bir necha madrasa, 40 ta rabot, 17 masjid, 10 xonaqoh, 9 hammom, 9 ko'prik, 20 ga yaqin hovuz qurdirgan yoki ta'mirlattirgan. Ular orasida Hirotdagi «Ixlosiya», «Nizomiya» madrasalari, «Xalosiya» xonaqohi, «Shifo'iya» shifoxonasi, Qur'on tilovatxonasi bo'lgan «Dorulhuffoz» binosi, "Jome'" "masjidi, Marvdagi «Xusraviya» madrasasi, Mashhaddagi «Dorulhuffoz» xayriya binosi va b. noyob me'morlik yodgorliklari bor. Bobur qayd etganidek, Navoiydan bo'lak hech kim bu qadar xayrli binolar yaratishga musharraf bo'lmagan edi. Bu davrda Hirotda adabiy hayot jo'sh urgan. Alisher Navoiy atrofida Shayxim Suhayliy, Xoja Osafiy, Binoiy kabi o'nlab shoirlar, Hasan Noiy, Xoja Abdullo Marvoriy, Qulmuhummad Udiy, Shohquli G'ijjakiy kabi o'nlab sozandalar, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar, Sultonali Mashhadiy, Abdujamil Kotib, Xoja Hofiz Muhammad, Muhammad Xandon, Mavlono Hijroniy kabi mashhur kotiblar, Behzod kabi musavvirlar, Husayn voiz Koshifiy, Atoulloh Husayniy kabi iste'dodlar qizg'in ijodiy mehnat bilan band edilar. Ularning ko'pchiligi Navoiy tarbiyasida voyaga yetdilar. Hirotda, umuman, Xuroson mulkida ma'naviy hayotning baquvvat ustunlaridan Abdurahmon Jomiy bilan Alisher Navoiy o'rtasidagi ijodiy hamkorlik – ustoz-shogirdlik ko'p masalalarda hamfikrlilikka olib keldi. Alisher Navoiyning barcha lirik janrlarga oid she'rlari yuksak mahorat bilan yozilgan bo'lib, inson manfaatlariga, uning e'tiqodini mustahkamlashga, ruhini sog'lomlashtirishga xizmat qiladi. Uning falsafiy, axloqiy mazmundagi hayot nafasi ufurib turgan har bir she'ri bu janrning o'lmas namunalaridir. Butun umrini yaxshilikka, ezgulikka, insoniylikka, o'z milliy g'ururini, tilini, adabiyotini yuksaklarga ko'tarishga baxsh etgan bobomiz Hazrat Alisher Navoiy bilan har qancha faxrlansak haqlidirmiz. Uning noyob asarlari xalqimiz ma'naviy merosining yuksak namunasi bo'lib xizmat qiladi. Biz yosh avlod, Hazrat Navoiydek buyuk insoniylikni, eliga, yurtiga fidoiy bo'lishning oliy namunasini, ezgulikka, soflikka, sevgi va sadoqatga

chorlashning mumtoz hissiyotlarini o'rganishimiz lozim va bu bebaho merosni kelajak avlodlarga hech qanday xiyonat qilmay yetkazish bizning muqaddas vazifamizdir. Ana shu muqaddas vazifaga va burchga sodiq qolishda bizga e'tiqod, imon, g'urur va o'zlikni anglash muhimdir. Hazrati Alisher Navoiy o'z asarlarida adolat va insonparvarlik g'oyalarini targ'ib etgan. Ana shunday asarlaridan biri bo'lgan, sharqda yetti iqlim istiqboli uchun mangu chiroq bo'lgan ajib bir asari "Mahbub ul-qulub" ham xuddi "Xamsa" singari millatning faxridir. Bu asar ulug' mutafakkir va buyuk shoir Alisher Navoiyning umri oxirida 906 (1500-1501) yilda yozilgan yirik nasriy asaridir. U muallifning g'oyat mazmunli va sermashaqqat hayoti davomida to'plagan boy tajribasi va xulosalarining yig'indisidir. Alisher Navoiy bu asarida ham inson haqida qayg'uradi.

Navoiy ushbu asarida yuksak insoniy fazilat va ezgulikni madh etish, targ'ib, tashviq etish bilan cheklanmaydi. U ayni zamonda odamlardagi yomon, xunuk, insoniylikka xilof xislatlarni, insonlar uchun, jamiyat uchun zararli, sharaflı inson sha'niga yarashiqsiz xulq- atvor va sifatlarni qoralaydi, tanqid ostiga oladi. Navoiy bu qismda, o'zining ijtimoiy qarashlariga oid fikrlarini davom ettiradi, chuqurlashtiradi, yangi-yangi dalillar bilan asoslaydi. Navoiy ilm ahlini g'oyat yuksak baholaydi, mamlakat obodonligini ta'minlashda, xalq ahvolini yengillashtirishda ularga juda katta umid bog'laydi. Bu xususda "Mahbub ul-qulub" dagi:

Kishiga necha kelsa mushkul hol,
Hikmat-u aql anga erur, halol,

kabi bayt va ilm hamda olimlar haqidagi fikrlari g'oyat ahamiyatlidir. Shuningdek, o'rganib undan amalda foydalanmagan, ya'ni ilmini xalq, mamlakat xizmatiga qo'ymagan olimlarni Navoiy hajv ostiga oladi.

Navoiyning ilm-fan haqidagi o'g'itlari uning ma'rifatparvarlik g'oyalarining uzviy qismini tashkil qiladi. U butun hayoti davomida ilm-ma'rifatni targ'ib etdi. Mehnat aziyatini chekib ilm o'rganganlarni olqishladi va avlodlarni ilm-ma'rifatni egallashga da'vat etdi. Uning "Bilmaganni so'rab

o‘rgangan olim va orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim. Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur, qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur” kabi dono o‘gitlari xalqning hikmatli so‘zlariga aylanib ketdi.

“Mahbub ul-qulub” dagi materiallar zaminida nutqning juda ko‘p fazilat va xislatlari ochiladi. Jumladan, Navoiy “nodon pandida g‘alat muqarrar va dushman nasihatida firib mutasavvar” ekanligini, ular bilan muloqatda bo‘lganda aql va tadbir bilan ish ko‘rishni maslahat ko‘radi. Navoiy ushbu asarida “Zamon kishilari bevafofigidan bag‘rimda tikonlar bor va davr xalqi behayoligidan ko‘ksimda yaralar bor. Bular haqida yozay desam, katta chidam menga vafo qilmaydi va barchasini qalamga olay desam, uzoq umr davomida ham tugatib bo‘lmaydi” deya bevafoqlarining jabridan fig‘on chekadi va ushbu baytni keltiradi:

Kimga qildim bir vafokim-yuz jafosin ko‘rmadim?

Ko‘rguzub yuz mehr, ming dardu balosin ko‘rmadim?

Shunday qilib, Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida o‘z zamonasiga va undagi ijtimoiy tabaqalar, guruhlar, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy hodisalarga faol munosabat bildiradi va o‘zining yuksak optimistik tilagini, kelajak avlodlariga qaratilgan eng pokiza tuyg‘ularini, gumanistik niyatlarini, dono o‘gitlarini asarga g‘oyat katta dadillik va o‘ziga xos qat‘iylik bilan teran mazmunda bayon etadi. O‘zi yaratilgan har bir asar insonni ezgulikka, ma‘rifatga boshlamog‘i darkor. Agar yaratilgan asar bunday xususiyatlardan holi bo‘lsa, bunaqa asarlarni asar deyishga inson tili biroz iymanadi. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari insonlarni ma‘rifatga boshlovchi didaktik asar deb, bemalol ayta olamiz. Chunki asarda insonni tarbiylovchi jihatlarni ko‘plab uchratishimiz mumkin. “Mahbub ul-qulub” odob-axloq, ma‘naviyat va ma‘rifat ustiga qurilgan asar. Buning dalilini yuqorida keltirilgan gaplarimizga isbotlab o‘tdik. Shuning uchun ham bunga ortiqcha izoh berishni joiz topmadik.

III bob. Ta'lim bosqichlarida “Mahbub ul-qulub” asarining o'rganilishi

3.1. VI sinfda “Mahbub ul-qulub” asarining o'rganilishi

Yetishib kelayotgan yosh avlodga Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy merosini o'rgatish, asarlaridagi vatanparvarlik, insoniylik, mehr-muhabbat, komil inson g'oyalarini singdirish uchun ta'lim bosqichlarida adib hayoti va asarlaridan parchalar berilgan. Ular quyidagilardan iborat: 5-sinfda “Hayrat ul-abror”, **6-sinfda “Mahbub ul-qulub”**, 7-sinfda “Sabb'ai sayyor”, 8-sinfda g'azallari, 9-sinfda “Farhod va Shirin”, 10-sinfda g'azal, qit'a va ruboiylari, 11-sinfda “Saddi Iskandariy” asarlari, akademik letsiylar uchun ishlab chiqilgan majmuaning 2-kitobida Alisher Navoiyning g'azal, qit'a, ruboiy, tuyuq, muxammas, tarjibandlari va “Xamsa”ning 5 ta dostonidan parchalar berilgan. Ta'lim bosqichlarida faqat 6-sinf adabiyot darsligida “Mahbub ul-qulub” asari berilgan. 6-sinflar uchun 68 soat ajratilgan bo'lib shundan 3 saoti “Mahbub ul-qulub” asarini o'rganish uchun berilgan bo'lib, darslikda “Mahbub ul-qulub”ning uchinchi qismi bo'lgan tanbehlardan namunalar keltirilgan. Alisher Navoiyga oid ma'lumotlar quyidagicha berilgan. Eng avvalo, adib haqida qisqacha umumiy ma'lumotlar va shunga oid savol va topshiriqlar berilgan. Ushbu umumiy ma'lumotlarni bu yerda ham keltiramiz: “Aziz o'quvchi, Siz buyuk bobokalonimiz hazrati Alisher Navoiy haqida ko'p eshitgansiz, kitoblar o'qigansiz va balki atoqli yozuvchi Oybekning «Navoiy» romani asosida suratga olingan ko'p qisimli videofilmni ham tomosha qilgansiz. Qolaversa, o'tgan yilgi adabiyot darslarida hazratning hayoti va ijodiy faoliyatiga oid ma'lumotlarni qunt bilan o'rgangansiz. Har yili 9-fevralda shoiming tavallud ayyomi Toshkent shahridagi Milliy bog' hamda yurtimizning turli vohalariga o'ratilgan haykallari poyiga gullar qo'yib, ul zot xotirasini yod etish an'anaga aylanganini ham bilasiz. Nima uchun shoir bobomizga shunday ehtirom va e'zoz bildiramiz? Asarlarini qayta-qayta nashr etib, keng targ'ib qilamiz? Chunki “Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davmi tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz

namoyandasi, millatimizning g'ururi, sha'n-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir. Ta'bir joiz bo'lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biron-bir inson yo'qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa"³. Darhaqiqat, bobomizning mustaqillik yillarida nashr etilgan yigirma jildlik mukammal asarlari to'plamiga kirgan she'r-u dostonlari, ilmiy va tarixiy asarlari, xotira va yozishmalari ruhiy dunyomizni nihoyatda boyitadigan, aql-tafakkurimizni charxlaydigan, yurtimiz tarixi vakilining buyuk siymolari haqida juda qimmatli ma'lumotlar beradigan asarlardir. Mazkur asarlarning orasida besh ulug'vor dostonni o'z ichiga olgan «Xamsa», ayniqsa, alohida e'tiborga sazovor. Siz avvalgi sinflarda bobomizning ijodiy faoliyatlari bilan tanishganingizda «Xamsa» yaratish juda mushkul, ammo sharaflari hodisa hisoblanganini, jahon adabiyotida faqat ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy, hind adibi Xisrav Dehlaviy va fors- tojik adabiyoti namoyandasi Abdurahmon Jomiyga, o'zbek hamda boshqa turkiy adabiyot vakillari orasida esa faqat Alisher Navoiyga nasib etganini bilib olgansiz.

Savol va topshiriqlar

1. Alisher Navoiy hazratlarining xalqimiz ma'naviy hayotida tutgan o'mi haqida so'zlab bering.
2. Nima uchun biz har yili 9-fevral kunini bayram sifatida nishonlaymiz?
3. Alisher Navoiy siymosi aks etgan qanday badiiy kitob va boshqa san'at asarlarini bilasiz?
4. «Xamsa» so'zi qanday ma'noni anglatadi va «Xamsa» yaratgan qaysi ijodkorlarni bilasiz?"⁴

Menimcha, mana shu o'rinda adib hayoti haqida qisqacha tarixiy ma'lumotlar berib ketilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki o'quvchi adib haqida qisqacha ma'lumotga ega bo'lsa, o'quvchi ongida tasavvur shakllanadi.

³ Islum Karimov. «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch». T., «Ma'naviyat». 2008. –B. 47.

⁴ Ahmedov S, Qo'chqorov R, Rizayev SH. 6-sinf. Adabiyot. II qism. – Toshkent: Ma'naviyat, 2013. –B. 32-33.

Darslikda “Mahbub ul-qulub”ning uchinchi qismida berilgan tanbehlarning asosan 6-sinf o‘quvchisining qabul qilish darajasiga yarasha asarning ular hazm qila oladigan odob-axloqqa oid tanbehlari keltirilgan. Tanbehlarda o‘quvchilarni barkamollikka yetaklaydigan, ularni kelajakda yaxshi ezgu-fazilatli inson bo‘lib yetishiga xizmat qiladigan g‘oyalar ilgari suriladi. Asarning o‘zi ham aslida didaktik-pandnoma asardir. Bu jihatdan asar 6-sinf darsligida qo‘yilib to‘g‘ri xulosa qabul qilingan. Asarni boshqa yuqori sinflarda ham o‘quvchilarning yoshiga mos qo‘yib borilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Chunki bu asarda Alisher Navoiyning butun odob-axloqqa oid hayot tajribalari keltirilgan. Yuqoridagi shuncha fikrlardan so‘ng sizga 6-sinf adabiyot darsligida berilgan “mahbub ul-qulub”ning tanbehlari havola etamiz “

«MAHBUB UL-QULUB»dan

T a n b i h (11)

Saxovat va himmat bobida

Saxovat insoniyat bog‘ining borvar shajaridur, balki ul shajaming mufid samaridur. Odamiylik kishvarining bahri mavjvari, balki ul mavj bah.ining sarmn gavhari. Saxovatsiz kishi - yog‘insiz abri bahor va royihasis mushki totor. Mevasiz yig‘och hamon-u o‘tun hamon va yog‘in- siz bulut hamon-u tutun hamon. Saxosiz kishi birla gavharsiz sadafning bir hukmi bor. Dursiz sadaf bila o‘lub qurug‘on kashafg‘a ne e‘tibor.

Saxiy bulutdur – ishi xirmon, balki maxzan bermak. Baxil mo‘rdur – da‘bi xo‘sha balki dona ternak. Himmat ahlig‘adur saxovat ixtisosi va bu ikki sharif sifat valoyat xosi. Saxovat odamig‘a badandur va himmat anga ruh va himmat ahlidin olamda yuz ming futuh. Himmatsiz kidii er so- nida emas, ruhsiz badanni kishi tirik demas. Oliy himmat shohbozedur baland parvoz va behimmat sichqon sayyode yurutacni toz. Shunqor maskani shohning bilagi, yurutachi maqomi o'laksaning sassig' badani va so'ngagi.

Arslon ishi sayd urub sibo‘ni to‘yg‘ormoq va sichqon varzishi diram

o'g'urlab, tugunni axtarmoq. Sohibi himmat muflisliq bila past bo'lmas, himmatsiz ganj topsa, biyiklarga hamdast bo'lmas. Chinor ilgi xotilig^idin biyikligiga ne nuqson va tufroqqa nihon ganjlari bila ne ulvi shon. Himmat ahlig^a agarchi biyik kavkabdur, ammo saxovatg'a necha martabadur.

Isrof saxo emas va itlofni ma'no ahli saxo demas. Haq molin kuydurganni devona derlar va yorug' kunda sham'i kofuriy yoqqonni aqldin begona derlar. Mubohot uchun bennak xudnamoliq va aning bda o'zin saxiy demak behayoliq. Ulki el ko'rmaguncha bermas – laimdur, saxiy emas. Tilab berganni ham saxodin yiroq bil; ibrom bila bergandin bermaganni yaxshiroq bil. Birta o'tmakni ikki bo'lub, yannin bir oehg'a berganni saxiy de; o'zi yemay barin muhtojga berganni axiy de.

Tanbih (12)

Hunarlarni topmoq – yedurmakdur va ayblarni yopmoq – kiydurmaqdur. Mahallida bergan eski chortora to'n - saxovat va bemahal bergan zarboft chorqab – shaqovat. Desangki, taoming zoye' bo'lmag'ay - yedur va tilasangki, libosing eskirmagay - kiydur. Saxo tariyqin mazkur bo'lg'on so'z-la angla, ammo karam oyini va futuvvat rusumi o'zga angla.

Tanbih (18)

Hilm zikrida

Hilm inson vujudining favoqihlig' bog'idur, odamiylik' olaming javohirlik' tog'i. Hilmni havodis daryosida kishilik kemasining langari desa bo'lur va insoniyat mezoni toshig'a nisbat qilsa bo'lur. Axloq shaxsning og'ir baholig' libosidur va ul libos jinsining sangin debosi. Muxolif nafslar sarsari uchurmoqdin asrag'uvchi va munofiq, bulhavaslar harzasi tundbodi sovrurmoqdin saqlag'uvchi. Xaloyiqdin kishiga mujibi ta'zim va e'zoz va akobirdin asog'irg'a boisi iltifot va imtiyoz. Necha ulug' kishi tamasxur va tiybat qilsa, aning qoshida beshukuh va viqor. Nechakim, inusin kishi hazl va xiffat ko'rguzsa, aning qoshida beshafqat va bee'tibor. Ammo davron bog'ining xas va xoshakoyinlari va yeldek besabot va

tamkinlari ko'ziga hilm ahli og'irliqqa mansub va garon jonliq bila ma'yubdurlar. Qnyundek tufrog'ni havog'a sovururlar va sabuksorliq bila boshlarin ko'kka yetkururlar. Tog' paykorin ayog' ostig'a olmoq oyinlari va dasht ajzosin havog'a sovurmoq tamkinlari. Yeldek har eshikdin kirarga orlari yo'q, o'tdek otashdonligMdin o'zga shiorlari yo'q. Yel agarchi lola tojin uchurg'ay, ammo qiyo kamarig'a neta olg'ay. O't agarchi tog' etagin kuydurgay, ammo quyosh axgarig'a nechuk yeta olg'ay?..

Ammo yel agar ko'kka yetsun, sabukbordur va bemiqdor va tog'l, agar tufroqqa botsunki, sohibviqordur, hilm-shior. Aning zimnida o'tqa yoqqudek xas-u xoshok, munung javfida shoh tojig'a tikilgudek la'li otashnok.

Bayt:

Og'irliq vaznidindur seldin g'amsiz Hiri tog'i,
Yengillik fartidin barbod erur qomg'oq yafrog'i.

T a n b i h (22)

Mazlung'a baxshoyish ko'rguzki. zolimdin osoyish ko'rgaysan. Zerdastlarga naf' yetkur, agar tilasangki. zabardastlardin zarar ko'rmagaysan. Xiradmand muxolafatdin qochar va muvofaqatg'a muloyamat eshigin ochar. Zanbur g'avg'osidin nish mutasavvardur va asal savdosidin no'sh muyassar.

T a n b i h (30)

Har kimki. birov bila yordur yoki yorlig' da'viysi bordur. kerakkim. o'ziga ravo tutmog'onni yorig'a ravo tutmasa, ko'p nimakim o'ziga ham ravo tutsa, anga tutmasa. Bas mashaqqatkim, andin ruhg'a alam yetar, kishi ani olz jism-u jonig'a tajviz etar. Ammo ani yorig'a taxayyul qila olmas, agar taxayyul qilsa, vahshatidin hayoti qolma.

Qit'a:

Yor uldurki, har nechakim o'ziga
Istamas, yorig'a ham istamagay.

O'zi istarki, yor uchun o'lgay,
Ani munda sherik aylamagay.

T a n b i h (48)

Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz. Harzago'ykim, ko'p takallum surgay, itdekdurkim, kecha tong otquncha hurgay. Yamon tillik andoqkim, el ko'ngliga jarohat yetkurur, o'z boshig'a ham ofat yetkurur. Nodoning muvahhish harzag'a bo'g'zin qinnog'i - eshakning jihatsiz qichqinnog'i. Xo'shgo'ykim, so'zni rifq va musovo bila aytg'ay, ko'ngulga yuz g'am keladurg'on bo'lsa, aning so'zidin qaytg'ay. So'z dadur har yaxshiliqni imkoni bor, munda debdurlarki. nafasning joni bor. Masihokim, nafas bila o'lukka jon berdi, go'yo bu jihatdin erdi.

Makruheki, harzasi tavil va ovozi karihdur, o'zi savti bila qurbaqag'a shabihdur. Ahli saodatlar ruhbaxsh zulolig'a manba' ham til, ahli shaqovatlar nahs qavqabig'a matla' ham til. Tiliga iqtidorlig' - hakimi xiradmand; so'ziga ixtiyorsiz - laimi najand. Tilki fasih va dilpazir bo'lg'ay — xo'broq bo'lg'ay, agar ko'ngul bila bir bo'lg'ay.

Til va ko'ngul xo'broq a'zodurlar insonda; savsan va g'uncha marg'ubroq: rayohindurlar bo'stonda. Odame til bila soyir hayvondin mumtoz bo'lur va ham aning bila soyir insonga sarafroz bolur. Til muncha sharaf bila nutqning olatidur va ham nutqdurki, agar nopisand zohir bo'lsa, tilning ofatidur.

T a n b i h (49)

Tildin azubat dilpisanddur va liynat sudmand. Chuchuk tilki, achchig'liqqa evruldi, zarari om bo'ldi, qandniki, muskir boda qildilar, harom bo'ldi. Chuchuk so'z sof ko'ngullarg'a qo'shdur, barcha atfol tab'ig'a muloyim halvofurushdur.

Bayt:

Xush so'zga kim o'lsa mast-u behush,
Sharbat aro zahmi qilur no'sh.

T a n b i h (50)

Har kimki, so'zi yolg'on. yolg'oni zohir bo'lg'och uyolg'on. Yolg'onni chindek aytquvchi suxanvar - kumushni oltun ro'kash qiluvchi zargar. Yolg'on afsonalarda uyqu kelturguvch.. yolg'onchi uyquda takallum surguvchi. Yolg'on aytguvchi g'aflatdadur. So'znmg asnofi bag'oyat cho'qdur. yolg'ondin yamonroq sinfi yo'qdur.

«MAHBUB UL-QULUB» ASARIDAN OLINGAN

NAMUNALARNING NASRIY BAYONI

Hurmatli o'quvchilar, guvohi bo'lganingizdek, Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asaridan keltirilgan ayrim namunalarning o'ziyoq buyuk mutafakkimining ham she'riy, ham nasriy uslubda birdek ynksak asarlar yarata olish iqtidoriga ega bo'lganini ko'rsatadi. Hikoya tarzining ravonligi, badiiy san'atlar bilan bezalgani, fikr va qarashlarning aniq ifoda etilishi matnning shavq bilan o'qilishiga zamin yaratadi. Lekin Sizning bilim va tajribalaringiz mazkur asardagi barcha so'zlarni to'liq anglash uchun hozircha yetarli emas. Shundan kelib chiqib, asardan olingan parchaning bugungi adabiy tilimizdagi matnini e'tiboringizga havola etish foydali bo'Madi, deb o'ylaymiz.

T a n b i h (11)

Saxovat va himmat to'g'risida

Saxovat insoniyat bog'ining hosildor daraxti, balki u daraxtning foydali mevasidir. Saxovat odamiylik mulkining mavj urib turgan dengizidir, balki u to'liqinli dengizning bebaho gavharidir. Saxovatsiz odam - yog'insiz bahor bulutiga va hidi yo'q mushk-anbarga o'xshaydi. Mevasiz daraxt ham bir-u, o'tin ham bir; yog'insiz bulut ham bir-u, tutun ham bir. Saxovatsiz odamdan ichida gavhan bo'lmagan sadafning farq; yo'q; dursiz sadaf bilan qurib qolgan toshbaqa chanog'ining farqi yo'q... Saxiy bulutdir, xirmon-xirmon don hosili, balki xazina beradi: baxil chumolidir. don-dun. mashoq teradi. Himmat ahlining ixtisosi —

saxovatdir: bu ulug‘ sifat – pokiza kishilarga xosdir. Odam bu badan bo‘lsa, himmat uning jonidir; himmatlilardan olam ahli uchun yuz ming sharaf va shukuh yetishadi. Himmatsiz kishi – er sonida emas; jonsiz badanni hech kim tirik demas. Oliyhimmat odam – balandparvoz lochindir; behimmat- sichqon ovlovchi kalxatdir. Shunqoming maskani – shohning bilagidir; kalxatning joyi o‘limtikning sassiq badani va so‘ngagidir.

Arslonning maqsadi - ov qilib, och yirtqichlami to‘yg‘azmoq; sich- qonning harakati – don o‘g‘irlab, tugun axtarmoq. Himmat egasi – qashshoq bo‘lsa ham tubanlik qilmas; himmatsiz odam – xazina topsa ham buyuklarga teng bo‘lmas. Chinordaraxti bo‘sh qo‘lli bo‘lsa-da, uning yuksakligiga nuqson yetmaydi; yer tagida yashirinib yotgan xazinaning tuproqqa foydasi tegmaydi. Himmatli kishilarning darajasi yuksakdir; ammo saxiylikning darajasi bir necha barobar yuksakdir.

Isrof qilish – saxiylik emas; o‘rinsiz sovurishni aqlli odamlar saxiylik demas. Halol molni kuydirganni – devona deydilar; yorug‘ joyda sham yoqqanni aqldan begona deydilar. Maqtanish uchun mol bermoq – o‘zini ko‘z-ko‘z qilmoq va shunday qilib o‘zini «saxiy» demoq – behayolik bilan nom chiqarmoq. Kimki xalqqa ko‘rsatib ehson bersa, u pastkash, saxiy emas. Tilagandan so‘ng berishlik ham saxovattan yiroqdir, qistash natijasida bergandan – bennagan yaxshiroqdir. Bitta kulchani ikki bo‘lib, yarmini och odamga berganni – saxiy deb, o‘zi yemay, hammasini muhtoj odamga berganni – axiy do‘st deb bil.

T a n b i h (12)

Yaxshiliklarni topmoq - yedirmoqdir; ayblarni yashirmoq – kiydirmoqdir. Zarur vaqtida berilgan eski chopon va bo‘z to‘n – saxovat; bemahal hadya qilingan zarbof chopon – yaramaslikdir. Ovqatim uvol bo‘lmasin desang – yedir; libosim eskirmasin desang – kiydir.

Saxovat qilish yo‘lini shu aytilgan gaplardan angla; ammo oliyjanoblik va mardlik rasmlari bundan boshqachadir.

T a n b i h (18)

Hilm to'g'risida

Hilm (muloyirn tabiatlik) inson vujudining xushmanzara mevalik bog'idir va odamiylik olamining javohirga boy tog'idir. Yumshoq ko'ngil- lilik — hodisalar to'la dengizdagi kishilik kemasining langari desa bo'ladi va insoniyat qadrini o'lchaydigan tarozining toshiga tenglashtirsa ham bo'ladi.

Hilm – axloqli odamning qimmatbaho libosi va u kiyim turlarining eng chidamli matosidir. U-yomon nafsni daydi shamol uchirishidan asraguvchi va ikkiyuzlama munofiqarning behuda harakatidan himoya qiluvchi.

Hilm natijasida odam xaloyiqning izzat-hunnatiga sazovor bo'ladi; hilm tufayli kattalardan kichiklarga iltifot va marhamat yetishadi.

Katta kishilar yoshlarni masxara va kulgi qilsa, ular qoshida o'zi shuncha obro'siz va bachkana tuyuladi; yoshlar ham kattalarga nisbatan hazil va yengiltakhk qilsa, uning qoshida uyatsiz va e'tiborsiz bo'ladi.

Bu davr bog'ining xas-xashak singari odamlari, shamoldek betayin, yengiltak kishilari oldida hilm ahli go'yo og'ir tabiatli va yomon fe'lli deb kamsitiladilar. Ularning o'zlari esa, quyundek tuproqni havoga to'zitadilar va yengiltabiatlari bilan boshlarini go'yo ko'kka yetkaza- dilar. Tog' jussasini oyoq osti qilmoq - odatlari: dala-dashtlardagi zar- ralarni havoga sovrurmoq - bulaming salobatlari. Bunday odamlar yeldek har eshikdan kirishga or qilmaydi: o'tdek otashdonni qizdirishdan o'zga ishni bilmaydi. Yel – garchi lolaning tojini uchiradi, ammo tog' qoyalari kamariga qanday ta'sir qila oladi? O't - tog' etagidagi xas-xashaklami kuydirishi mumkin. lekin quyosh uchquniga qanday tenglasha oladi?..

Yel – agar ko'kka yetsa ham, baribir yengil va qadsiz; tog' – agar tuproqqa botsa ham salobatlidir. Yelning orasida o'tga yoqiladigan xas- xashaklar bor; hilm mazmunida esa, shoh tojiga qadalgudek cho'g' kabi qizil la'l bor.

Bayt:

Hiri tog‘i og‘ir bo‘lgani uchun uni sel bossa ham tashvishi yo‘q,
To‘zg‘oq o‘simligining yaprog‘i yengil bo‘lgani uchun shamolda
barbod bo‘ladi.

T a n b i h (22)

Mazlumga yaxshilik qilsang – zolimdan omonda bo‘lasan. Agar kuchlilardan zarar ko‘rmayin desang, kuchsizlarga foyda yetkaz. Aqli bor odam janjallashishdan qochadi; do‘stlashish uchun kelishuvchilik eshigini ochadi. Arining g‘uvullashida, nayza sanchishi xavfi bor; asalarining g‘ovurida bolga muyassar bo‘lish imkoni bor.

Tanbih (30)

Har kim birov bilan do‘st-yor bo‘lsa yoki do‘st-yorlik da‘vosini qilsa, o‘ziga ravo ko‘rmaganni unga ham ravo ko‘rmsligi kerak; ba‘zi narsalami o‘ziga ravo ko‘rsa hamki, yoriga ravo ko‘rmasligi lozim. Ko‘p mashaqqatlardan kishi ruhiga alam yetadi, jism-u joni bunga toqat qiladi. Ammo bunday mashaqqat do‘sti boshiga tushishini xayoliga ham keltira olmaydi. Mabodo xayoliga keltirgudek bo‘lsa, dahshatdan hayoti so‘nadi.

Qit‘a:

Yor uldirki, o'ziga ravo ko'rmagan narsani

Yoriga ham ravo ko'rmagay.

O‘zi yori uchun o'lmoqqa tayyor esa-da,

Lekin yorini bu ishda sherik qilmagay.

Tanbih (48)

Tilga ixtiyorsiz - elga e‘tiborsiz. Ko‘p, bemaza so‘zlaydigan ezma – kechalari tong otguncha tinmay huradigan itga o‘xshaydi. Tili yomon odam – xalq ko‘mglini jarohatlaydi, o‘z boshiga ham ofat yetkazadi. Nodoning vahshiylarcha baqirmog‘i - eshakning bemahal hangramog‘i. Xushsuxan odam yumshoqlik bilan

do'stona so'z aytadi; ko'ngilga tushishi tnumkin bo'lgan yuz g'am – uning so'zi bilan daf bo'ladi. So'zda har qanday yaxshilikning imkoni bor, shuning uchun ham aytadilarki, «nafasning joni bor...»

O'zi xunuk, gapi bema'ni, ovozi yoqimsiz odam qurbaqaga o'xshaydi. Baxt bag'ishlovchi toza ruh manbayi ham til; yomonliklar keltiruvchi nahs yulduzining chiqar joyi ham til. Tilini tiyolgan odam – donishmand oqil; so'zga erk bergan odam - beandisha va pastkash. Til shirin va yoqimli bo'lsa yaxshi; til bilan dil bir bo'lsa yana yaxshi. Til bilan dil – insondagi eng yaxshi a'zolardir. Bo'stonda – gulsafsar, gulg'uncha va rayhonlar eng yoqimli gullardir.

Odam - tili bilan boshqa hayvonlardan imtiyozlidir. Uning tili orqali boshqa odamlardan afzalligi bilinadi. Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma'qul bo'lib chiqsa – tilning ofatidir.

T a n b i h (49)

Til shirinligi — ko'ngilga yoqimlidir; muloyimligi esa — foydali. Chuchuk til achchiqqa aylansa ko'pchihkka zarari tegadi; qanddan may tayyorlansa harom bo'ladi. Shirin so'z sof ko'ngillar uchun asal kabi totli- dir; bolalar uchun muloyim tabiatli odam - halvofurush kabi sevimlidir.

Bayt:

Yaxshi so'zga kim mast-u behush bo'lsa,
Sharbat ichida zaharni totli qiladi.

T a n b i h (50)

Har kimningki so'zi–yolg'on, yolg'onligi bilingach, uyatga qolgon; yolg'onni chindek gapiruvchi so'z ustamoni – kumushga oltin qoplab sotuvchi zargar. Yolg'on-afsonalar bilan uyqu keltiruvchi yolg'onchi - uyquda alahlovchi. Yolg'on gapiruvchi g'aflatdadir; so'zning bir-biridan farqi ko'pdir, ammo yolg'onroq turi yo'qdir.

T a n b i h (108)

Safarning foydalari to'g'risida

Turg'un yer qayda-yu. aylanuvchi osmon qayda? Bir joyda turgan tuproq qayda-yu, sayr etib yuruvchi yulduz qayda? Bin qimirlamay turgani uchun kishilar oyog'i ostida poyandoz bo'ldi; ikkinchisi esa, harakatda bo'lgani tufayli, yuksaklarning yuksagi bo'ldi.

Azob va mashaqqat tavoze va adabning negizidir. Safar esa ranj-mashaqqatga sababdir. Safar - erituvchi va kuydiruvchi ko'radir. U erish- kuyish esa er kishining vujud oltinini toblab xom gildan tozalovchidir.

Safar - ayriliqqa uchraganlarni maqsadiga yetkazuvchi va mahrumlarni murod uyiga olib kirmchidir. Safar - xom odamlarni pishiruvchi va taomlarni singdiruvchidir. Safar kishilarni olam ajoyibotlaridan bahramand qiladi, g'aroyibotlar dunyosidan xabardor qiladi.

Aziz kishilarning mozorlarini ziyorat qilish fayziga musharraf va mukarram bo'lmoq ham safardan; fayzli, ulug' zotlar xizmatida izzat va hurmat topmoq ham safardan. Yo'lovchining yurishiga quvvat beruvchi ham safar va ko'ngliga har tomonga bosh zavqini soluvchi ham safar. Musofimni turli joy va manzillar bilan tanishtiruvchi ham u; dunyoni kechish yo'lga soluvchi ham u. Issiq-sovuqda jonga orom beruvchi ham u; achchiq-chuchukdan ko'ngilni ogohlantiruvchi ham u.

Safar vodiysida musofirning oyog'iga ko'p dard-u balo tikanlari sanchdadi, lekin har qadalgan tikandan bir maqsad guli ochiladi. Yo'l mashaqqati zarbidan kishining a'zoyi badani qaqshaydi: vujudi yo'lovchilar oyog'i bilan toptaladi va har a'zosi u oyoqlar ostida ushaladi. Ammo, ko'ngilning vayronligi tuzaladi va ruhi ko'zgusi ravshan tortib, jilo topadi.

Har o'lkaning go'zalligi, har manzilning osoyishtaligini safarda yuruvchilardan so'ra va musofirlardan eshit. Safar qilmagan orom olish farog'atini qaydan bilsin? Musofirlik azobini chekmagan vatandagi hayotning qadrini qaydan anglasin? Oqmaydigan dengiz suvini ichsa bo'ladimi? Oqar daryoning zilol suvlaridan ichishni tark etsa bo'ladimi?

Odam uchun doim harakatda bo'lish – hayotlikdan asardir; jonsiz

mavjudotlar - tiriklik nishonasidan bexabardir...

T a n b i h (110)

Yaxshi odamdan yomonlar ham yomonlik kutmas; yaxshi odam yomonlardan ham yaxshilikni ayamas.

Yaxshilik qila olmasang - yomonlik ham qilma. Yaxshilikni yomonlikdan yaxshiroq deb bilmasang, yomonroq deb ham bilma. Yaxshilik qilishni bilmasang, yaxshilarga qo'shil; yaxshilik atrofida aylana olmasang, yaxshilar atrofida aylan.

ALISHER NAVOIYNING HIKMATLI SO'ZLARI VA «MAHBUB UL-QLLUB» ASARI HAQIDA

Siz hazrat Alisher Navoiy ijodini qancha ko'p o'rgansangiz, shunchalik ko'p ibrat, hayotiy saboq olasiz. Bular, o'z navbatida, hayotingiz davomida juda asqotadigan, sizni to'g'ri yo'ldan borib, yaxshi inson bo'lib yetishishingiz, obro'-e'tibor qozonishingizga ko'maklashadigan saboqlardir. Ulug' mutafakkir bobomizning qay bir asarini olmaylik, unda insonning ma'naviy tarbiyasi bilan bog'liq biron fikr, hikmat uchramasdan qolmaydi. Hikmatli so'z, pand-u o'git Sharq adabiyotining qon-qoniga singib ketgan. Asli adabiyot so'zidagi «adab» o'zagining ma'no-mazmuni odob ekanini yodga olsak, Sharqda badiiy ijod insonlarga pand-u o'git, nasihat berishning ta'sirli usuli bo'lganini anglaymiz. Sharq adabiyoti ibratli voqealar, hikmatli so'zlar, mushohadali kishilarni yuksak axloqli, ma'naviy boy, komil inson etib tarbiyalashni o'zining bosh maqsadi deb belgilagan. Alisher Navoiy bobomiz ham Sharq adabiyotining ana shu mohiyat-mazmuni, an'alariga ko'ra ijod etdi va turkiy xalqlar adabiyotini yuksak cho'qqiga ko'tardi. Shoirning g'azal-u ruboiylari, muxammas-u qit'alari hamda dostonlarida pand-u o'git, hikmatlar badiiy obrazlar, qiyosiy o'xshatishlar, qiziqarli sarguzashtlar bayoni orqali anglashiladi. «Mahbub ul-qulub» nomli asarida esa pand-nasihat, axloqiy qarashlar bosh mavzuga aylanib, bevosita - to'g'ridan to'g'ri ifoda etiladi. Ularga har tomonlama ta'rif berilib, falsafiy, axloqiy xulosalar

chiqariladi. Mana shu mulohazalardan kelib chiqib, “Mahbub ul-qulub” kabi asarlarni axloqiy- falsafiy yo'sindagi pandnoma yoki nasihatnoma deb ataymiz.

Turkiy va fors-tojik adabiyotida Alisher Navoiygacha xuddi shu janr va ko'rinishdagi asarlar mavjud edi. Bunga Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Sa'diy Sheroziyning «Guliston» va «Bo'ston», Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston» asarlarini misol keltirish mumkin. Alisher Navoiy ham mazkur asarlarni chuqur o'rganib, o'sha an'analar ruhida ijod etdi. Shoir bu asami urnrining oxirida – 1500-yilda yaratdi va uni «Mahbub ul-qulub», ya'ni «Ko'ngillaming sevgani» deb atadi. Bu nom bilan mazkur kitobda insonga xos eng ezgu fazilatlar, uni ma'naviy barkamol etadigan, o'zgalar qarshisida go'zal, oliyjanob ko'rsatadigan hislatlar jamlanganligini anglatmoqchi bo'ldi. Darhaqiqat, Alisher Navoiy ko'zlagan maqsad nafaqat asar nomida, ayni chog'da uning butun ma'no-mazmunida, ta'rif-u tafsilotlarida to'la mujassamdir.

Ulug' bobomiz asarning kirish qismida quyidagilarni alohida ta'kidlaydi:

«Bu xoksor va parishonro'zgor kamina bolalikdan to qarilikka qadar ko'hna davron voqealaridan, aylanuvchi osmon hodisalaridan, fitna qo'zg'ovchi dunyo buqalamunligidan - tovlamachiligidan, zamonaning rang singari gunogunligidan ko'p vaqt va uzoq muddat har xil xayol va taraddudlar bilan daydib yurdim; har tovor va ravishda bo'ldim va turli yo'llarga kirdim, yaxshi-yomonning xizmatini qildim; katta-kichikning suhbatida bo'ldim; goh xorlik va qiyinchilik vayronasida nola qildim; goho izzat va ma'murlik bo'stonida majlis qurdim.

Masnaviy:

Gahi topdim falakdin notavonlig',
Gahi ko'rdum zamondin komronlig',
Base issig', sovug' ko'rdum zamonda,
Base achchig', chuchuk totdim jahonda».

Darhaqiqat, «Mahbub ul-qulub» asari oltmish yillik umri davomida hayotda ko'rgan-kuzatganlarini teran tahlildan o'tkazib, muayyan xulosalar chiqargan donishmand adibning kelgusi avlodlarga qoldirgan buyuk ma'naviy merasidir. Bu

asar har bir odam umri davomida duch kelishi muqarrar bo'lgan hayotiy savollarga eng tolg'ri javoblarni ta'sirli usulda berishi bilan yuksak qimmat kasb etadi. Buni Siz o'qigan boblarning mazmun-mohiyati ham yaqqol ko'rsatib turibdi.

Mutafakkir adib saxovat va himmatni insoniyat bog'ining hosildor daraxti, u daraxtning foydali mevasi deb atar ekan, bunda mutlaqo mubolag'a qilmaydi. Darhaqiqat. insonlar o'rtasidagi munosabatlarda saxovatlilik, himmatlilik singari oliyjanob xislatlar yo'qolgan kuni bu hayot daraxti qaqrab qurimog'i turgan gap. Asarda oliyhimmat kishilar balandparvoz lochinga, behimmat kimsalar esa sichqon ovlovchi kalxatga o'xshatilishi bejiz emas. Bunga qo'shimcha, chinakam saxovatli va himmatli kishilarga minnat degan qusur mutlaqo yotdir. Navoiyning bundan besh asr avval ilgari surgan g'oyalari bugun ham o'z dolzarbligi va ahamiyatini yo'qotmay kelayotgani kishini hayratga soladi. Bu jihatdan shoirning isrof to'g'risidagi mulohazalari, ayniqsa ibratli. «Isrof qilish - saxiylik emas; o'rinsiz sovurishni aqlli odamlar saxiylik de-mas. Halol molni kuydirganni – devona deydilar; yorug' joyda sham yoqqanni aqldan begona deydilar. Maqtanish uchun mol bennoq — o'zini ko'z-ko'z qilmoq va shunday qilib o'zini «saxiy» demoq-behayolik bilan nom chiqarmoq. Kimki xalqqa ko'rsatib ehson bersa, u pastkash, saxiy emas». Bugungi kunda o'tkazilayotgan ayrim to'y va boshqa marosimlarda inson peshona teri bilan yaratilgan noz-ne'matlarining behisob uvol qilinayotganini, ularing egalari bu illatdan ko'ra o'z nomini chiqarmoqni ko'proq o'ylayotganlarini ko'rganda Navoiyning bu iztiroblari beixtiyor yodga kelmaydimi?! Xuddi shunga o'xshash mulohazalarni uning muloyim tabiatlilik, tilga e'tibor, safar fazilatlarini to'g'risidagi fikrlari borasida ham bemalol aytmoq mumkin.

Hazrat Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asari, muallifning o'zi ta'kidlaganidek, uch qismga bo'linadi: birinchi qism har xil odamlarning fe'l- atvori va ahvoli haqida; ikkinchi qism yaxshi fe'l xosiyati va yomon xislat kasofati haqida, uchinchi qism turli foydali kuzatishlar va misollar haqida.

Savol va topshiriqlar

1. Sharqda adabiyot soʻzining maʼno-mazmuni va undan koʻzlangan maqsad nima?
2. Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asari qanday anʼanalar asosida va nima maqsadda yaratilgan?
3. Alisher Navoiyga qadar shu yoʻnalishda kimlar tomonidan qanday asarlar yaratilgan?
4. «Mahbub ul-qulub» iborasi qanday maʼnoni anglatadi va u necha qismdan iborat?
5. Saxiylik va himmat rushunchalanga shoir qanday taʼrif beradi va qanday oʻxshatishlar qoʻllaydi?
6. «Saxiy» soʻzi bilan «axiy» soʻzining farqi haqida soʻzlang va shunga oid oʻz fikrlaringizni bildiring.
7. Asaming «Saxovat va himmat bobida»n kelib chiqib, shu mavzularda sinfdoshlaringiz bilan suhbat quring.
8. Yaxshilik va hojat chiqarish deganda siz nimani tushunasiz?
- 9.«Hilm»- yumshoq koʻngil kodamlar nima uchun tibor topadi lzzat- hurmat koʻyadi?
10. Oʻz hayotingizda uchratgan yumshoq koʻngilli insonlar haqida soʻzlab bering.
11. Shoir «Tilga ixtiyorsiz - elga eʼtiborsiz» degan hikmatli soʻz;ami keltirganda nimalarni nazarda tutadi?
12. Mustaqil yillarida ona toʻlmizga munosbat qanday boʻldi va biz qaysi kunni «Davlat ilmi kuni» bayrami sifatida nishonlaymiz?
13. Nima uchun yaxshi, rost soʻz eʼtiborli va qisqa boʻladi? Asarda koʻ- tarilgan fikrlar va kuzatishlaringiz asosida oʻsha hikmatni izohlang.

14. Safarga chiqishmng qanday foydalari bor?”⁵

Darslikda “Mahbub ul-qulub” asaridan tashqari Alisher Navoiyning hikmatli soʻzlari va asarning yaratilishi, unda ilgari surilgan gʻoyalar haqida maʼlumotlar berilgan. Umuman xulosa qilib aytadigan boʻlsak, darslikda “Mahbub ul-qulub” oʻquvchining qabul qilish darajasi va yoshiga moslab berilgan. Pedagogik amaliyot davomida oʻquvchilarga shuni kuzatdimki, Alisher Navoiy asarlari oʻquvchilarga birmuncha qiyinchilik toʻgʻdirar ekan. Lekin maktab darsliklarida bu asarlarni qoʻymasa ham boʻlmas ekan, chunki A.Navoiy asarlarini salmogʻi juda katta agar oʻquvchilarga bu asralar berilmasa, qolgan asralarini tushinish qiyin boʻladi. Shunday ekan, buyogʻi oʻqituvchining pedagogik mahoratiga bogʻliq. 6-sinf oʻquvchilari ham bundan holi emas. Oʻquvchilar bilan subatlashish davomida shunday xulosaga keldim: oʻquvchilarga “Mahbub ul-qulub:ni ananaviy dars uslubida oʻtish qiyinchilik tugʻdirar ekan. Menimcha ularga asarni bsohqa shunga oʻxshahs sarlar bilan solishtirib oʻrgatish birmuncha tushunarli boʻladi. Chunki oʻquvchi ongida taqqoslash boʻladi, bu esa tushinishni osonlashtiradi. Bu asarni yaxshiroq tushinishda sinf oʻquvchilarini ikki guruhga boʻlib oʻrgatish ham yaxshi natija beradi. Bu guruhlarga quyidagicha topshiriq berishimiz mumkin: bir guruh ijobiy hislatlarni aytsin, ikkinchi guruh salbiy hislatalrni aytsin va ularni nima uchun salbiy va ijobiyiligiga tarif bersin. Bu asarni oʻrgatishda **“Boʻsh xazina”** metodidan ham foydalansak boʻladi. Bu metodda sinf uch guruhga boʻlinadi va doskaga A.

Navoiy va uning darslikda berilga asari haqida savollar ilingan boʻladi. Soʻng doskaga uchta boʻsh sandiqcha ilinadi va uchta guruhdan vakillar chiqib savollarga javob bera boshlaydi. Har toʻgʻri javob berilgan savol boʻsh sandiqchaga solinaveradi. Agar savolga toʻliq javob berilmasa, javob qabul qilinmaydi. Qaysi guruhning sandiqchasi birinchi boʻlib toʻlsa oʻsha guruh gʻolib boʻladi.

⁵Ahmedov S, Qoʻchqorov R, Rizayev SH. 6-sinf. Adabiyot. II qism. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2013. –B. 33-47.

“Zukkolar” guruhi

Bo'sh sandiqcha

“Topqirlar” guruhi

Bo'sh sandiqcha

Bunda o'qituvchi o'quvchilarni tasodifiy tarzda guruhlar bo'lib tashlaydi. Chunki agar shunday qilmasa, aktiv va passiv o'quvchilar birga bo'lib qolishi mumkin. Bu esa dars saviyasini pasaytradi.

SAVOLLAR DOSKASI

1. Alisher Navoiyning umrining oxirida yozgan asari?
2. “Mahbub ul-qulub” nechchi qismdan iborat?
3. “Mahbub ul-qulub”ning 108-tanbehi nima haqida?
4. A. Navoiy nimani tavoze va adabning nigizidir deydi?

Mavzuga oid boshqa savollardan iborat bo'ladi.

Bu “bo'sh xazina” metodi edi.

“Mahbub ul-qulub” asarini o'rganishda yana bir qancha metodlardan o'rinli foydalansak bo'ladi. Bu o'rinda **“Kiyingisi kim?”** metodidan foydalansak bo'ladi. Bu metoddan quyidagicha foydalaniladi: sinfda taxminan 25 ta o'quvchi bo'lsa, shunch asavol tuziladi va savolning orqasida 1dan 25 gacha raqamlardan biri qo'yiladi va savolga javob bergan o'quvchi (bermagani ham) savol orqasidagi raqmni aytadi. Masalan, savol orqasiga 8 raqami bo'lsa, jurnalda shu o'rinda turgan o'quvchiga navbat keladi, o'yin shu yusinda davom etadi. Bu metod

o‘quvchilar diqqatini bir joyda jamlaydi va zihnini oshiradi. Yana mavzuni mustahkamlashda **“Qog‘ozga yozamiz”** metodidan foydalansak bo‘ladi. Bu metod og‘zaki nutqi yoki gapirishga tortinadigan o‘quvchilarga ko‘proq mos keladi. Chunki og‘zaki nutqi bo‘lmagan o‘quvchining yozma nutqi yaxshi bo‘lishi mumkun. Bunda Adibning biron tanbihinisavol qilib berib, Alisher Navoiyning ushbu tanbehini savol tarzida beramiz. Adib ushbu tanbehda nima demoqchi:

T a n b i h (22)

“Mazlumg‘a baxshoyish ko‘rguzki, zolimdin osoyish ko‘rgaysan. Zerdastlarga naf‘ yetkur, agar tilasangki, zabardastlardin zarar ko‘rmagaysan. Xiradmand muxolafatdin qochar va muvofaqatg‘a muloyamat eshigin ochar. Zambur g‘avg‘osidin nish mutasavvardur va asal savdosidin no‘sh muyassar.”

O‘qituvchilar vaqt tugagach qog‘ozga yozgan javoblarini o‘qib beradilar. O‘qituvchi o‘quvchilarning beragn javobiga qarab, ularni adolatli baholaydi.

Darsda asarni tushuntirishda yana ko‘rgazmaliq qurollardan foydalanishimiz mumkin. Alisher Navoiyning 10 jildlik mukammal asarlar to‘plamini, “mahbub ul-qulub” asarini, adibning asarlariga ishlangan hujjatli filmlarni, multfilmlarni lirik chekinish qilib qo‘yib berish mumkin. Darsda birgina darslikda keltirilgan asar bilan ham chegaralanib qolish maqsdadga muvofiq bo‘lmaydi. O‘quvchilarga tengsiz adibimizning boshqa asarlari haqida ma’lumot berib ketish kerak va boshqa asarlari bilan qiyoslab, solishtirib o‘rgatish kerak. Shundagina, o‘quvchilar alisher navoiy va uning asarlari haqida chuqurroq ma’lumotga ega bo‘ladilar. Alisher Navoiy asarlarini o‘rgatishda yana quyidagi metodlarni qo‘llalishimiz mumkin. “Savol-javob”, “Suhbat”, “Test” va boshqa metodlarni keltirishimiz mumkin.

3.2. Ochiq dars ishlanmasi

Sana: 20__ - yil “___” - _____

Sinf: 6

Fan: Adabiyot

Vaqt: 45 daqiqa

Darsning mavzusi: “Mahbub ul-qulub”

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy maqsad – o‘quvchilarga Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari va hikmatlari haqida ma’lumot berish.

b) tarbiyaviy maqsad – O‘quvchilarni Alisher Navoiy ijodiga hurmat ehtirom ruhida tarbiyalash, vatanga muhabbat tuyg‘usini singdirish, ulug‘ ajdodlarimizga munosib sifatida har sohadafaol bo‘lib, yurtimiz ravnaqiga hissa qo‘shish maqsadini shakllantirish va tarbiyalash;

c) rivojlantiruvchi maqsad –badiiy so‘z sanati muhabbat, ajdodlarimiz merosiga hurmat tuyg‘usini singdirish; og‘zaki nutqini o‘stirish.

Dars turi: mustahkamlash, umumlashtirish.

Darsda foydalaniladigan metod: interfaol, bliss-so‘rov, T chizmasi, bahs-munozara

Darsda foydalaniladigan jihoz: tarqatma materiallar, ko‘rgazmali qurollar, slayd, videorolik, doska.

Darsning borishi:

I. **Tashkiliy qism.**

a) salomlashish;

b) tozalik va davomatni aniqlash;

c) o‘tilgan mavzu so‘raladi va takrorlanadi;

d) o‘quvchilarni darsga qiziqtirish maqsadida shoirning “Kelmadi” radifli g‘azali yod o‘qib beriladi

II. Yangi mavzuning bayoni:

Ulug' mutafakkir bobomizning "mahbub ul-qulub" asariga bag'ishlangan mazkur darsni "Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asaridan hikmatlarni o'rganamiz" deb nomladik. Darsimizni quyidagi reja asosida olib bordik:

MAVZU: ALISHER NAVOIYNING "MAHBUB-UL QULUB" ASARI

Reja:

1. Alisher Navoiy bizning buyuk bobokalonimiz.
2. Mahbub ul -qulub asari haqida bilib olaylik.
2. Mahbub ul qulubdan hikmatlar sandig'i.

"MAHBUB UL QULUB" HAQIDA BILIB OLING!




1500-yil shoir umming oxirida "Mahbub ul-qulub" "Qablarning sevgani" asarini yaratdi. Bu nom bilan mazkur kitobda insonga xos eng ezgu fazilatlar, uni ma'naviy barkamol etadigan o'zgarlar qarshisida go'zal, oliyjanob ko'rsatadigan xislatlar jamlanganini anglatmoqchi bo'ldi. "Mahbub ul-qulub" asari adibning oltmish yillik umri davomida hayotda ko'rgan kuzatganlarini teran tahlil etib, kelgusi avlodlarga qoldirgan buyuk ma'naviy meroslardir. Asar hikmatli so'zlarga boyligi bilan e'tiborni tortadi.

MAHBUB UL-QULUB ASARI UCH QISMGA BO'LINADI



"MAHBUB UL -QULUB"DAN HIKMATLAR SANDIG'I



Saxovat insoniyat bog'ining hosildor daraxti, balki u daraxtning foydali mevasidir.

► Saxovatsiz odam - yog'insiz bahor bulutiga va hidi yo'q mushk-anbarga o'xshaydi.


► Bitta kulchani ikki bo'lib, yarmini och odamga berganni - saxiy deb, o'zi yemay, hammasini muhtoj odamga berganni - axiy do'st deb bil.



▶ Zarur vaqtida berilgan eski chopon va bo'z to'n - saxovat; bemahal hadya qilingan zarbof chopon - yaramaslikdir.

▶ Katta kishilar yoshlarni masxara va kulgi qilsa, ular qoshida o'zi shuncha obro'siz va bachkana tuyuladi; yoshlar ham kattalarga nisbatan hazil va yengiltaklik qilsa, uning qoshida uyatsiz va e'tiborsiz bo'ladi.

- ▶ Mutafakkirning "Mahbub ul- qulub" asaridan boblarni o`qib o`rgandik. Mavzuni T-chizmasi asosida ko`rib chiqamiz. Bu usulda Navoiy bobomizning saxiylik va baxillik haqidagi donishmandona fikrlari qiyoslab tushuntiriladi. Monitorda ko`rsatib tushuntirib beriladi



III. Yangi mavzuni mustahkamlash.

"MAHBUB UL- QULUB" HIKMATLARIDAN O'ZINGIZGA ENG YOQQANLARINI NA'MUNA QILIB KELTIRING.

Tanbih-11
dan

Tanbih-12
dan

Tanbih-18
dan

Tanbih-48
dan

Tanbih-50
dan



▶ Mavzuni mustahkamlashda testlardan ham foydalansak bo'ladi va xotirani kuchaytiradi.

▶ Test

▶ 1. Alisher Navoiy umrining oxirida yozgan asarini toping ?

▶ A) "Lison ut-tayr"

▶ B) "Xamsa"


▶ C) "Xazoyin ul-maoniy"

▶ D) "Mahbub ul-qulub"

- ▶ 2. "Tilga ixtiyorsiz, elga e'tiborsiz" hikmati to'g'ri izohlangan javobni toping ?
 - ▶ A)O'ylamay o'rinsiz gapirish
 - ▶ B)Atrofdagilarni hurmat qilmaslik
 - ▶ C)Shoshma shosharlik
 - ▶ D)Barcha javoblar to'g'ri
- ▶ 3.Mutafakkir ulug'lagan sifatlar keltirilgan javobni aniqlang ?
 - ▶ A)Rostgo'ylik, saxiylik, vafo-sadoqat, bilimga intilish
 - ▶ B)Boylik to'plash, loqaydlik, dangasalik
 - ▶ C)To'g'rilik, mehnatsevarlik, el-yurtni sevish
 - ▶ D)A va C javoblar to'g'ri

Baholash:

Kuzatish, savol – javobli so'rov, o'quv topshiriqlari har bir mashg'ulot uchun 1 ballidan 5 ballgacha qo'yiladi.

 **4 ball uchun yaxshi**
2 -3 ball uchun qoniqarli



IV. Uyga vazifa: o'qib kelish:

Yangi mavzu bo'yicha boshqotirma tuzib, adib hikmatlaridan yod olib kelish.

Xulosa

Navoiy dahosi tufayli insoniyat tarixida dunyoning turli joylarida yashayotgan turkiy xalqlar yakqalam qilindi, millat ma'naviy merosi umumjahon xazinasidan mustahkam o'rin oldi. Alisher Navoiyning eng so'nggi yirik nasriy asari "Mahbub ul-qulub"dir. "Mahbub ul-qulub"da shoirning umri davomida ko'rgani, kuzatgani, boshidan kechirgani, inson va yashash bilan bog'liq ko'pdan-ko'p mulohazalari bayon qilingan. Ushbu bitiruv malakaviy ishining birinchi bobi "Mahbub ul-qulub"ning tuzilishi va undagi masalalar". Unda "Mahbub ul-qulub"ning tuzilishi, birinchi, ikkinchi, uchinchi faslidagi masalalar o'rganiladi. Birinchi qismdagi masalalar batafsilroq yoritiladi. "Mahbub ul-qulub" asaridagi hayotiy, dolzarb qarashlar zamonlarosha insonlar qalbidan joy egallab kelmoqda. Alisher Navoiy aytgan fikrlarni qalb qo'riga singdirsa, hayot yo'llariga qoqilmasadan yura oladi. Bu bitiruv malakaviy ishidan siz asar haqidagi tasavvurlaringizni yanada boyitishingiz, yangi ma'lumotlarga ega bo'lishingiz mumkin. Shu bilan bir qatorda asardagi ilgari surilgan fikrlarni yangi metodlar orqali yanada teranroq anglaysiz. Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asari va undagi ma'naviy-ma'rifiy, ta'limiy-tarbiyaviy qarashlar g'oyaviy -badiiy jihatdan katta ahamiyatga ega asardir. Asarga kiritilgan nasihatlar, hikmatalar, tanbehlar ijod mahsuli badiiyligini yanada oshirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Mukammal asarlar to'plami. 10 jildlik 9-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2011.
4. Ahmedov S, Qo'chqorov R, Rizayev SH. 6-sinf. Adabiyot. II qism. – Toshkent: Ma'naviyat, 2013.
5. Muhamedov O'.X, Usmonboyeva M.H, Rustamov S.S. Ta'limni tashkil etishda zamonaviy interfaol metodlar. –Toshkent, 2016
6. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 4 tomlik. 1-tom. –Toshkent: Fan, 1983.
7. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2005.
8. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. –Toshkent: G'afur G'ulom, 2006.
9. Boboyev T. She'r ilmi ta'limi. –Toshkent: Fan, 1996.
10. Berdaq Yusuf. Mumtoz adabiy asarlar lug'ati. –Toshkent: Sharq, 2010.
11. Donishmanlar tuhfası. –Toshkent, 2009.
12. Hamidjon Homidiy. Tasavvuf allomalari. –Toshkent: Sharq, 2004.
13. Haqqulov I. Kamol et kasbkim. –Toshkent: Ma'naviyat, 1991.
14. Haqqulov I. Navoiyga qaytish. –Toshkent: Fan, 2007.
15. Haqqulov I. Zanjirband sher qoshida. –Toshkent: Fan, 1989.
16. Haqqulov I.Meros va mohiyat.–Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
17. Hayitmetov A. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti. –Toshkent: Fan, 1996.
18. Hayitmetov A. Adabiy merosimiz ufqlari. –Toshkent: Ma'naviyat, 1997.
19. Is'hoqov Yo. So'z san'ati so'zligi. –Toshkent: Fan, 2006.

20. Komilov N. Tasavvuf. 1-kitob.–Toshkent: Movarounnahr, 1996.
21. Komilov N. Tasavvuf. 2-kitob.–Toshkent: Movarounnahr, 1999.
22. Komilov N. Faqr nuri porlagan qalb. –Toshkent: Ma’naviyat, 2001.
23. Navoiy asarlari lug‘ati. –Toshkent: O‘zbekistin, 1972.
22. Navoiyga armug‘on. 5-kitob. –Toshkent: O‘zbekiston, 2006.
23. Ochilov E. Alisher Navoiy. Hikmatlar. –Toshkent: O‘zbekiston, 2010.
24. Qayumov A. Alisher Navoiy. –Toshkent: Akademnashr, 1991.
25. Qayumov A. Dilkusho takrorlar va ruxafzo ash'orlar. –Toshkent: Akademnashr, 2011.
26. Sultonmurod Olim. Navoiy-yoshlarga. –Toshkent, 2008.
27. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy manbalarining qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. –Toshkent: Akademnashr, 2011.
28. Vohidov R, Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. –Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.
29. O‘z ME. 1-tom. –Toshkent: Akademnashr, 2000.
30. G‘afurov G‘. Sharq javohirlari. –Toshkent: Ma’naviyat, 2000.
31. Abadiyat gulshani. Tuzuvchi: Rahmatov O‘. –Toshkent: Sharq, 2013.
32. Sultonmurod Olim. Mahbub ul-qulubda shoirlar va oshiqlar tasnifi//O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. –Toshkent, 2010.
33. To‘ychiyev U. Navoiyni ishqni turlarga ajratib tasvirlashi// O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. –Toshkent, 2010.

Foydalanilgan internet saytlari:

1. www.ziyouz.com.
2. www.ziyonet.uz.
3. www.adabiyot.uz
4. www.tahlil.uz
5. www.xurshiddavron.uz